

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O'zbek filologiyasi yo'nalishi
448-guruh bitiruvchisi Mushtariy Ma'murovaning**

**“FRANS KAFKANING “JAZO KOLONIYASIDA” VA
NAZAR ESHONQULNING “MUOLAJA”
ASARLARIDAGI TIPOLOGIK O'XSHASHLIKLAR”
mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: S. Xo'jayev
katta o'qituvchi**

Farg'ona – 2013

MUNDARIJA

I.	KIRISH.....	2-5
II.	BIRINCHI BOB.	
	Frans Kafka asarlarida modernizm xususiyatlari.....	6-19
III.	IKKINCHI BOB.	
	Nazar Eshonqul hikoyalarida modernizmning tasviriy usuli.....	20-30
IV.	UCHINCHI BOB.	
	“Jazo kaloniyasida” va “Muolaja” hikoyalarining qiyosiy tahlili.....	31-48
V.	XULOSA.....	49-50
VI.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	51-52

I. KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi.

Qiyosiy adabiyot orqali avvalo yozuvchilarning badiiy mahoratini ochib berish mumkin. Shuningdek, uning milliy adabiyotda yoki jahon adabiyotidagi mavqeyini belgilash, yozuvchining o'ziga xos iste'dodini, mahoratini va yashirin qirralarini aniqroq bilib olish uchun boshqa bir ijodkorning o'xshash asari bilan qiyoslab o'rganish ham muhim sanaladi. Qiyoslash orqali adabiyotning asl mohiyati ochiladi.

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi.¹

Ana shunday zamonaviy yo'nalishda ijod qilib, o'z hikoyalari va romanlari bilan xalqimizga manzur bo'layotgan yozuvchilarimizdan biri Nazar Eshonquldir. Nazar Eshonqul hikoyalarining o'zaro – ruhan yaqinligi ma'naviy-axloqiy masalalar ustivorligi bilan belgilanib, insonni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo'sini bilan xarakterlanadi. Ularda insonni badiiy tushunish hamda tushuntirishda ikki yo'nalish ko'proq ko'zga tashlanadi.

Birinchidan, xalqimizning milliy mustaqillikka erishgungacha kechgan hayotidagi erkka tashnalik kayfiyati hamda milliy istiqlol arafasidagi odamlarning ruhiy holatlari va jamiyat hayotini yoritishga harakat qilinadi.

Ikkinchidan, ezgulik, adolat tantanasi uchun g'ov bo'lgan ma'naviy-axloqiy illatlarni fosh etishga intilish, haqiqatning tantana qilishiga ishonmagan, ko'ngli

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. – B.137.

mudroq odamlar ruhiyatini jamiyat psixologiyasi bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish va ana shunday bedard kimsalar amal qiladigan falsafa mohiyatini ramzlar tilida ochib berish hamda shaxsning parchalanish sabablarini badiiy-falsafiy o'rganish alohida tamoyilni tashkil etadi.²

Bu ilmiy ishimizda shuningdek, g'arb adabiyotining klassik yozuvchilaridan biri bo'lgan Frans Kafka hikoyalari tahlili ham o'rin olgan.

XX asr jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Frans Kafka asarlarida o'ziga xos jihatlar va modernizm ruhining yuqoriligi barchaga ma'lum. Uning roman va hikoyalarida gunohga botgan inson qismati boricha tasvirlanadi. Insonga, uning qalbi va ruhiyatiga bo'lgan ishonch Kafka ijodining asos ildizidir. Uning asarlariga e'tibor berilsa, ulardagi jumboqlar, sirli klavlarga qaramay, ma'lum ma'noda yakunga egaligini ko'rish mumkin. Agar o'quvchi Kafka hayoti bilan tanish bo'lsa, har bir asar uning hayotining ma'lum bir bosqichini aks ettirayotganini anglay oladi.

Odatdagi hikoyalarni o'qib o'rgangan inson F.Kafka hikoyalarini o'qib, dastlab hech narsaga tushunmasligi aniq. Bularning yechimini topish uchun asarga jiddiy e'tibor qaratib, Kafkaning shaxsiyatiga xos xususiyatlardan xabardor bo'lish va eng muhimi, o'zini adibning o'rniga qo'yib ko'rgan insongina nimanidir anglaganday bo'ladi. Shundagina uning hikoyalari biz bilgan va yashayotgan real hayotdan qo'rqinchli emasligini tushunish mumkin.

Har ikki adibning hikoyalari esa o'zaro yaqinligi va bir-birini takrorlamasligi bilan diqqatga sazovordir. Bu esa milliy adabiyotimizda ham modernizm yo'nalishidagi asarlarning sermahsul bo'layotganligidan dalolatdir.

Ishning maqsad va vazifasi.

Frans Kafkaning "Jazo koloniyasida" va Nazar Eshonqulning "Muolaja" hikoyalarini qiyosiy jihatdan tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik. Asarlardagi o'zaro o'xshashliklar va farqli jihatlar, milliy adabiyotimiz va g'arb

² Matyoqubov S. Nazar Eshonqul hikoyalarida ijodiy individuallik // O'zbek tili va adabiyoti, 2011, №5. – B. 45.

adabiyotidagi yaqinliklar va bir-birini inkor etadigan tomonlari, hamda hikoyalarning bosh g'oyasini aniqlash tahlili ishning vazifasini tashkil etadi.

Ishning yangiligi.

Frans Kafka va Nazar Eshonqulning hikoyalari bo'yicha juda ko'plab ilmiy ishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, Frans kafkaning "Jarayon" romani bo'yicha, Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyalari haqida ko'plab maqolalar nashr qilingan. Har ikki adibning hikoyalari borasida ilmiy tadqiqotlar qilingan bo'lsada, aynan "Jazo koloniyasida" va "Muolaja" hikoyalarining qiyosiy tahlili bo'yicha deyarli hech qanday ilmiy ish qilinmagan. Ayrim adabiyotshunos va munaqqidlar o'z fikrlarini bayon qilishgan. Ammo asarlarning o'zaro o'xshashligi va farqli jihatlari haqida alohida to'xtalib o'tilmagan.

Ishning o'rganilish darajasi.

Frans Kafka ijodi bo'yicha milliy adabiyotimizda Naim Karimov, Umarali Normatov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Yo'ldosh Solijonov, Abdug'opir Qosimov, Akmal Saidov, yevropada Gustav Yanoux, V. Nabokov va shu kabi adabiyotshunos olimlar va munaqqidlar tomonidan ko'plab maqolalar, ilmiy ishlar e'lon qilingan.

Nazar Eshonqul ijodi bo'yicha esa Umarali Normatov, X. Do'stmuhammad, Jabbor Eshonqul, S. Matyoqubov, H. Ashurov kabi adabiyotshunos va munaqqidlarimizning ko'plab maqolalari nashr qilingan.

Ishning tuzilishi.

Ish kirish, uch bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, yangiligi, o'rganilish darajasiga to'xtalamiz. Ishning birinchi bobida modernizm haqida ma'lumot berilib, Frans Kafka asarlarida modernizm xususiyatlari tahlil etiladi. Ikkinchi bobda hikoya janri va uning imkoniyatlari haqida aytilib, Nazar Eshonqul

hikoyalari tahlili beriladi. Tadqiqotning uchinchi bobida esa qiyosiy adabiyotshunoslik borasida biroz ma'lumot beriladi, hamda "Jazo koloniyasida" va "Muolaja" hikoyalarining qiyosiy tahlili yoritiladi.

Tadqiqotning xulosa qismida ilmiy izlanishlardan kelib shiqadigan nazariy xulosalar umumlashtirilgan. Adabiyotlar ro'yxatida o'ttizga yaqin ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxati, hamda internet saytlari nomi berilgan.

II. BIRINCHI BOB. Frans Kafka asarlarida modernizm xususiyatlari.

Modernizm (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) - XIX asrning 2-yarmi — XX asrning 50—60-yillarida Evropa, AQSH adabiyoti va san'atida rivoj topgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi. Dastlab, Fransiyada tashkil topgan simbolizm, akmeizm, impressionizm (mas, 1863 y.da Parijda ochilgan "Xo'rlanganlar saloni") vakillari, musiqada K.Debyussi, M.Ravel kabi kompozitorlar ijodiga nisbatan qo'llangan. Badiiy ijodning mumtoz an'alaridan voz kechish, ijodkor o'z shaxsiy kechinma, taassurot va tasavvurlarini ustun qo'yishi, badiiy shakllarni yangilash jarayoniga alohida ahamiyat berish ular ijodiga xos bo'lgan xususiyatlardir. Modernizm vakillari realizmga qarshi kurashdi, klassitsizmga xos bo'lgan ijodiy tamoyillarni inkor etishga intildi.

Aslida, adabiy jarayonda hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari (realistik va norealistik), adabiyotning mohiyati, bilish imkonlari, vazifasi va shu kabi masalalarda ziddiyatli qarashlar azaldan mavjud bo'lgani e'tiborga olinsa, modernizm kurtaklarini juda qadim zamonlardan ham topish mumkin bo'ladi. Ya'ni modernizmga realistik va norealistik yo'nalishlar orasidagi ziddiyatning muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda quyuqlashib, keskin namoyon bo'lishi, yangilangan nazriy asoslarga ega bo'lishi va ommalashishi sifatida qarash mumkin. Modernizm o'tgan asr (XIX) oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan, ijodiy dasturlari va ijod amaliyoti jihatidan turli-tuman adabiy maktab va yo'nalishlar (ekspressionizm, impressionizm, simbolizm, akmeizm va b.) o'ziga asos bilgan estetik tizim, ijodiy metod sifatida tushuniladi. Modernizm doirasidagi maktab va oqimlar nechog'li turfa bo'lmasin, ularni umumlashtiruvchi qator nuqtalar mavjud. Avvalo, dunyoqarash jihatidan ular nafaqat XIX asrda ommalashgan pozitivizm, balki asrlar davomida shakllangan an'anaviy xristian

dunyoqarashidan ham deyarli uzilib, F. Nitshe, Z. Freyd, A. Bergson, U. Jeyms kabi mutafakkirlar qarashlaridan oziqlanadi.³

Modernizm yo'nalishining paydo bo'lishiga G'arbdagi hayot tarzi va fikrlash yo'sini sabab bo'ldi. Chunki bu davrga kelib, ko'pchilik G'arb mamlakatlarida fan-texnika, ilm tez rivojlandi, ishlab chiqarish unumdorligi ortdi, shu sababli insonlarning boyish imkoniyati ko'paydi. Insonda oldingi davrlardagiga qaraganda kamroq qiynalib, ko'proq samaraga erishish va yaxshiroq yashash imkoniyati paydo bo'ldi. Ammo bu imkoniyatlar alohida insonni ham, yoki butun insoniyatni ham baxtli qilolmadi. Inson aqlining kuchi ommaviy qirg'in qurollari yaratishga, bir-birini o'ldirishga xizmat qildirildi va bu ayanchli oqibatlariga olib kela boshladi. Bu narsa inson baxti taraqqiyotda, ilm-fan rivojida deb bilgan kishilarni dovdiratib qo'ydi. Ilm-fan yomonlikka xizmat qilishi ham mumkinligi ayon bo'ldi.

Shuning uchun ham bu davrda ishonchsizlik, ezgulikdan umid qilmaslik, hayot, umr, odam va uning intilishlari samarasiz va bema'nidir degan qarash keng yoyildi. Bu hol adabiyotda modernizmning paydo bo'lishiga olib keldi. Modern yozuvchilar olamni ko'proq qora ranglarda ko'rdilar va tasvirlay boshladilar. Ular bugunlariga ham, ertangi kunlariga ham ishonmay qo'ydilar. Fan va texnikaning rivoji inson tabiatini va hayotini o'zgartirib yuborgandi. Shu bois modern adiblar odamzodni shu vaqtga qadar ko'nikilmagan holatlarda, turli-tuman umidsiz yo'sinlarda tasvirlash yo'lini tutdilar.

Modernizm ijodkorlari oldingilariga o'xshamagan hayotda yashayotgan avvalgilarga o'xshamaydigan odamlarni oldingilarga o'xshamaydigan badiiy shaklda tasvirlay boshladilar. Ular odamzotni kutilmagan jihatlarini aks ettirishga urindilar.⁴

Bu yo'nalish vakillari hayot haqiqatiga rioya qilishni muhim deb hisoblamaydilar. Modern yozuvchilar uchun tasvirning hayotdagiga, borliqdagiga o'xshashi emas, balki insonning ichki olamini, ruhiy to'lg'amlarini aks ettirishi

³ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: Akademnashr, 2010. – B.176.

⁴ Karimov N. va boshqalar. Adabiyot (11-sinf darslik). T.: O'qituvchi, 2004. – B.354.

muhim sanaladi. Ular insonning yon-atrofida, o'zgalar bilan aloqa-munosabatida ro'y beradigan voqealarni odatdagiday hayot tarzi deb baholaydilar, ular uchun tanlangan ob'yektni ya'ni insonning ichida yuz berayotgan isyonlar, kechinmalarni yoritib berish muhim, asosiy planda hisoblanadi. Ular dunyoga o'zgacha nazar bilan qaraydilar.

Bizga ma'lumki, adabiyotda "taqlid" tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, san'atkor o'z asarini biror narsani aks ettirish yoki biror narsaga taqlid qilish orqali yaratadi. Qisqacha Per Lagerkvist aytganidek, tabiatdan "nusxa ko'chirish" orqali. Klassitsizm va naturalizm yo'nalishlarining tub asosini "taqlid" tashkil etadi. Zamonaviy yo'nalishda esa bu tushuncha deyarli qo'llanmaydi. Chunki, zamonaviy san'atkor uchun "taqlid" prinsipi uning imkoniyatlarini ko'p darajada cheklab qo'yadi. "Naturalistlar dunyoni tasvirlamas edilar, ular uning nusxasini tasvirlar edilar" deb yozgan edi Steyn Mexren. Hamda u bu holatni ko'p kuch sarflamasdan juda go'zal fotografiyalar yaratish mumkinligi bilan qiyoslaydi. Aslida "taqlid" tushunchasining tarixi Arastuga borib taqaladi.

Modernizm shu ma'noda yangi narsa emaski, u o'tmishdagi biron bir an'anaga go'yoki tayanmaydi, desak to'g'ri bo'lmaydi. U tubdan yangi, shu darajada "modern" emaski, boshqa zamonlarda, boshqa mamlakatlarda yashab o'tgan boshqa san'atkorlar o'z asarlarini hozirgi modern san'atkorlari amal qiladigan prinsiplarga tayanib yaratgan emas, desak bu ham to'g'ri bo'lmaydi.⁵ Espen Xovardsxolm aytganidek, modernizm tom ma'nodagi yangi yo'nalish emas. Uning ildizlari qadimga borib taqaladi. Faqat shu atama bilan atalmagan. Qadimda ham an'anaviylikni chetlagan holatda yaratilgan san'at asarlari zamonaviy san'at mahsuli deb yuritilavergan. Shuningdek, hamma davrlarda ham bu san'atni tushunolmagan yoki tushunishni istamaganlar soni ko'pchilikni tashkil etgan.

O'zining dunyo haqidagi ko'nikilgan tasavvurlariga ikki qo'llab yopishib olgan odamlargina yangi san'atni tushunishga, uning mohiyatiga kirib borishga bo'lgan har qanday intilishdan qat'iyan bo'yin tovlamoqlari mumkin. Erling Kristi yozadi: "Poeziya voqelikka taqlid qilish emas yoki u voqelikni tafsiri ham emas,

⁵ Jahon adiblari adabiyot haqida // Espen Xovardsxolm // Modernizm. T.:Ma'naviyat, 2010. – B.367.

poeziya – oʻz-oʻzicha voqelikdir, voqelik boʻlganda ham amaldagi voqelikdan ortiqroq darajada voqelikdir. Unda joʻnlik pardasini bir chekkaga surib qoʻyib, bizning ongimizning “voqelik” bilan muloqotga kirishmogʻiga yordam beradigan “himoya mexanizmi” ning xatti-harakatini namoyish qilishga intilish tajassum topgandir. Yaxshi asar – kitobxon shuurida portlaydigan bir boʻlak siqiq voqelikdir.” Bu soʻzlar faqat poeziya uchun emas, jamiki modernizm uchun qonun kuchiga ega.⁶

Eng muhimi, modernizm voqelikni realistik tasvirlashdan voz kechib, uni idrok qilish mumkin emas deb hisoblaydi. Insonning hissiy bilish imkoniyatini tashqi mohiyatga taʼsir etish orqali koʻrsatishga harakat qiladi. Bu yoʻnalish vakillari voqelikda aks etadigan sabab-natijani, tartibni qoʻllamaydilar, yaʼni voqelikka birdan paydo boʻlgan oniy taassurotlar yigʻindisi ded qaraydilar. Modernizmga tanib boʻlmas darajada oʻzgargan, tasodif va gʻaroyibotlarga toʻla makon aks ettiriladi.

Modernizmga xos umumiy xususiyatlardan biri shuki, u obʼektiv voqelikning tasviri oʻrniga uning ijodkor tasavvuridagi badiiy modelini yaratishni maqsad qiladi. Yaʼni bu oʻrinda voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning oʻz-oʻzini ifodalashi (ekspressionizm) ustivor ahamiyat kasb etadi. Ijodda subʼektivlikning oldingi oʻringa chiqarilishi, mantiqiy bilishdan intiutiv bilishning yuqori qoʻyilishi, inson ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarga ayrim eʼtibor berilishi (ong oqimi), ijodkor shaxs ijodiy taxayyuli va u aks ettirgan voqelikning betakror hodisa sifatida tushinilishi, oʻz oʻy-hislarini hech qanday (maʼnaviy, axloqiy, siyosiy va h.) cheklovlarsiz ifodalash huquqining eʼtirof etilishi ham modernizmga xos xususiyatlardandir. Ijodiy erkinlik nafaqat gʻoyaviy-mazmuniy, balki shakily izlanishlarda ham mutlaqo dahlsiz. Modernizm asrlar davomida shakllangan adabiy qonunlarni inkor qiladi va har qanday normativlikka qarshi (futurizm) turadi.⁷

⁶ Oʻsha asar. – B.367-368.

⁷ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lugʻati. T.: Akademnashr, 2010. – B.177.

Modernizm falsafiy estetik hodisa bo'lib, u XX asr adabiyoti va san'atida chuqur iz qoldirdi. Uning klassik namoyondalariga J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu va boshqa shu kabi adiblarni ko'rsatish mumkin. Ularning asarlaridagi ("Uliss", "Jarayon", "Begona") o'ziga xosliklar va asarning badiiy saviyasi bu davrdagi kamdan-kam asarlarda uchraydi. Bu asarlar xali-hanuz adabiyotshunoslar va tanqidchilarning diqqat markazida.

O'zbek adabiyotida modernizmga xos ayrim xususiyatlar uchrab boshlangan davr 80-yillarni tashkil etadi. Bu davrda ijod qilgan yozuvchi-adiblarimizdan M.M.Do'st, A.A'zam, O.Muxtorlarning asarlarini ko'rsatishimiz mumkin. Ammo bu davrgacha, ya'ni sho'ro davrida modernizmga salbiy hodisa deb qaraldi va bu yo'nalishda ijod qilganlar surgun qilingan yoki qamoqqa olinib, yozuvchilik litsenziyasidan maxrum etilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng modern yo'nalishda ijod qiluvchi qator yoshlar maydonga chiqdi. Masalan: N.Eshonqul, T. Rustam, B.Ro'zimuhammad, Faxriyor va boshqalar.

Yevropa modernizmining klassik namoyondalaidan biri bo'lgan Frans Kafka asarlari modern adabiyotining mumtoz na'munalaridir. Modern adabiyotda deyarli hech narsa o'z oti bilan atalmaydi. Unda tasvir butunlay ramzlar va imo-ishoralarga asoslanadi. Shuning uchun ham Kafkaning "Jarayon" romani qahramoni Yozef K. ustidan qo'zg'otilgan jarayon aslida insonning mushkuldan mushkul hayotidir. Kafkaning talqinida inson yashamaydi, balki bir umr sudlanadi. Inson boshqa insonlarga kerak emas, kimsasiz va unga hech kim yordam bermaydi. Shu bois insonning hayotida yorug'lik bo'lmaydi. Lekin ana shu shafqatsiz hukm-u xulosalar g'oyat ta'sirchan va o'ziga xos tarzda ifoda etilgani uchun ham yuksak badiiy qimmat kasb etadi.

XX asr adabiyoti taraqqiyotini yangi yo'nalishga solib yuborgan, inson va uning umriga o'zgacha munosabatni qaror toptirgan Frants Kafka dunyodagi eng g'aroyib va tushunarsiz taqdir egasi bo'lgan ijodkordir, deyish mumkin. Millatiga ko'ra juhud, tug'ilgan va yashash joyiga ko'ra pragalik, tiliga ko'ra nemis, tayangan madaniy an'analariga ko'ra avstriyalik bo'lgan yozuvchi o'zida mutlaqo

kelishtirib bo'lmaydigan qarama-qarshilik, chigalliklarni jamlagan inson bo'lgan. Kafkaning asarlari inson tafakkurini o'zgartirib yubordi, uning adabiyot haqidagi tasavvurini yangiladi, insonga o'zgacha estetik nuqtayi nazardan qarash mumkin ekanligini isbotladi. Qizig'i shundaki, Kafkaning ijodiy taqdiri ham shaxsiy hayotiga o'xshash chigal edi. Undan uch roman qolgan bo'lib, uchalasi ham tugallanmagan edi, uchovi ham adibning o'limidan keyin chop etilgan.⁸

Frans Kafka 1883-yilning 3-iyulida Praga shahrida tug'ilgan. Otasi o'z mehnati tufayli shaharda kichikroq bir fabrikaning egasi bo'lgan. U uch qizi va o'g'li Fransning kelajagini ta'min etmoqchi bo'ldi, lekin o'g'li bilan bir umr kelisholmay o'tdi. Fransning onasi ruhoniylar oilasidan edi.

Kafka Pragadagi nemis gimnaziyasini tugatib, 1901-1905-yillarda Praga universitetida huquqshunoslikni o'rgandi, san'at tarixi va olmonshunoslik bo'yicha ma'ruzalar tingladi. 1906-1907-yillarda Praga shahar sudining advokatlar idorasida amaliyot o'tadi. 1907-yilning oktyabridan boshlab xususiy sug'urta jamiyatiga xizmatga kirdi. 1908-yilda Praga tijorat akademiyasida shu ixtisoslik bo'yicha malakasini oshirdi. Shundan so'ng u doktorlik ilmiy darajasiga egaligiga qaramay, turli kam ish to'lanadigan tashkilotlarda ishlagan.⁹

“Mana kimga rahmim keladi”, - deydi **“Davozaning taqillashi”** novella-hikoyatidagi berahim, shafqatsiz sudya. “Bunda, - deb yozadi Kafka, - u mening hozirgi xolatimni emas, kelajagimni nazarda tutib aytardi... Turma xavosidan boshqa xavo bilan nafas olish nasib qilarmikan? Bu mening oldimda turgan, to'g'rirog'i, zarracha bo'lsada ozodlikka chiqishga umid bo'lganida, kelajakda oldimda turishi mumkin bo'lgan asosiy masala”.

Halokatga mahkumlik, horg'inlik, ta'qib qilinganlik, turmushning umidsizligi va ma'nisizligi, olomon orasidagi yolg'izlik, ma'nisiz xizmat, oiladan begonalashish tuyg'usi – mana shular yozuvchi va shaxs Kafkaning olamini tashkil qiladi.

⁸ Karimov N. va boshqalar. Adabiyot (11-sinf darslik). T.: O'qituvchi, 2004. – B.365.

⁹ Internet ma'lumoti.

Uning iqtidorini zamondoshlaridan bo'lgan R.Muzil, H.Hesse, T.Mannlar yuqori baholaganlar. Kafka o'zini badarg'a qilingan, uysiz va o'z joyini topmagan, sargardon his qilardi. O'zingiz o'ylab ko'ring-chi, millati yahudiy, yashash joyi Praga, tili va yozuvi nemischa bo'lgan odam o'zini qanday his qilishi mumkin. Uning nemis biograflaridan biri: "Yahudiy bo'lgani uchun nasroniylar uni o'zlariniki deb qabul qilmaganlar. Loqayd va beparvo yahudiy sifatida uni yahudiylar rad qilganlar. Nemis tilida gapiruvchi odam sifatida, chexlar orasida begona edi. Nemis tilida gapiruvchi yahudiy sifatida, nemislar uni qabul qilmagan. U kiyimlilar orasida yalang'och edi. Ishchilarni sug'urta qiluvchi xizmatchi sifatida, u burjualar safida to'laqonli bo'lmagan. Byurger (shaharlik odam)ning o'g'li bo'lgani uchun, ishchi hisoblanmasdi. U yozuvchi ham bo'lmagan, chunki bor kuchini oilasiga bag'ishlagan. O'z oilasida begonalardan ham begona sifatida yashagan.", - deb yozgan edi Kafkaning Germaniyalik biograflaridan biri. Kafka – Gregor Zamzami? degan tabbiy savol tug'ilishi mumkin. Har ikkisi ham boshqalarga o'xshamaydi, oilada begona, qarindoshlari ularni tushunishmaydi. Albatta oddiy yahudiy oilasidan bo'lgan, o'rta tabaqadagi idora xodimining buyuk yozuvchiga "evrilishi" yuz berdi, u o'z zamondoshlaridan o'zib ketdi, shu sababli na oilasi va na zamon tomonidan tan olindi.

Yozuvchining g'ayrioddiy, murakkab, qarama-qarshi xususiyatlarini hayotning o'zi dunyoga keltirdi. U insoniyat tarixidagi eng dahshatli, vayrongarchiliklar keltirgan voqealarning guvohi bo'ldi. O'zining qisqa hayoti davomida u Birinchi jahon urushini, Avstriya-Vengriya imperiyasining qulashini ko'rdi, inqiloblarning yer osti silsilalarini xis qildi. "Urush, Rossiyadagi inqilob va butun dunyodagi ofatlar mening nazarimda yovuzlikning toshqiniga o'xshaydi. Urush xaos, tartibsizliklar darvozasini ochib yubordi".

Universitetni tamomlagach, Kafka xususiy sug'urta kompaniyasiga ishga kirdi. Ish vaqtining soat 14 da tugashi, unga adabiyot bilan shug'ullanish imkoniyatini berdi. SHu sababli bo'lsa kerak, idora xodimi bo'lgan Kafkaning faoliyati, yozuvchi Kafkaning ijodiy faoliyati bilan bir vaqtda boshlangan. SHunga qaramay u umrining oxirigacha orzu qilgan "erkin ijodkor" bo'la olmadi.

“Yozuvchilik va u bilan bog‘liq barcha narsalar – mening mustaqil bo‘lishga intilishimning mohiyatini tashkil qiladi, bu qochishga tayyorgarlik... Men, qo‘rquv uxlashga yo‘l qo‘ymagan tunlari yozaman”, - degan edi yozuvchi. Balki asarlarining shu darajada g‘amgin, qayg‘uli bo‘lganligining asosiy sababi shundadir? “Men har doim odamlarga va avvalo - o‘zimga dahshat solaman”.

1912-yilning 11-dekabrida Kafka o‘zining ilk kitobi, hikoyalar to‘plamini Felitsiya Bauerga sovg‘a qildi.

Taniqli rus adabiyotshunosi B.L.Suchkov, ilk asarlarining Kafka ijodidagi o‘rni haqida gapirib: “Uning ilk asarlaridayoq qalbini, xayolini o‘rtagan, u uchun qadrlı bo‘lgan mavzularning kurtagini uchratamiz. Ijodining yetuk davrida yozuvchi bu mavzularni turli ko‘rinishlarda davom ettirdi ”, - deya ta’kidlaydi.

Uning ilk novellalari va hikoyatlaridayoq, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan vaziyatlarni tashqi “haqqoniylik” qobig‘iga o‘rashga, reallikdan uzoq bo‘lgan xodisa va kuzatishlarni hayot haqiqatidan ham haqqoniyroq tasvirlashga intilishini payqash mumkin.

Kafka roman janriga murojaat qiladi. U o‘ziga zamondosh bo‘lgan amerika megapolisining hayotini, hayotning texnikalashtirilishini, ushbu dunyoda odamning yo‘qotilishini tasvirlashga harakat qiladi, vaholanki xech qachon u yerda bo‘lmagan bo‘lsa-da. “Amerika” romani nihoyasiga etmay qolgan bo‘lsa ham, o‘limidan uch yil keyin chop ettirilgan. Roman bilan bir vaqtda yozuvchining mashhur “**Evrilish**”, “**Hukm**”, “**Jazo koloniyasida**” hikoyalari yozildi.

1914 yili u “**Jarayon**” romani ustida ish boshladi, bu asar ham tugallanmay qolgan, adabiyotshunos olim V.N.Nikiforovning ta’kidlashicha, “dasturiy tugallanmagan”, chunki muallifning o‘zi aytganiday, jarayon o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarila olmasdi. SHu tariqa roman qaysidir ma’noda cheksizlikka yuz tutadi. Bu asar ham yozuvchining o‘limidan keyin chop etilgan. O‘rni kelganda, ta’kidlash joizki, ko‘plab tadqiqotchilar “Jarayon”da Dostoevskiyning “Jinoyat va jazo” romanining aksini, ta’sirini ko‘radilar. Kafka “Jarayon”da birinchi romanida qo‘llagan usulini qo‘llaydi: hayotga faqat qahramon ongi orqali nazar tashlaydi. Roman juda ko‘p tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan, uning talqinlari ham

xilma-xil. Biroq xali hanuz to‘laqonli javob topildi, deb bo‘lmaydi. Romanda natsistlar terrori, konslagerlar, ommaviy qotilliklar bashorat qilinadimi?

SHaxs hayoti mohiyatan umuminsoniyat umrining mikromaketi. Absurd (hayot - ma’nisiz) adabiyoti vakillari S.Bekket (“Godoni kutish”), Sartr, Kamyu, Prust, Joys, Rob-Griye, N.Simpson. Ma’nisizlikdan ma’ni topish. Yozuvchining uslubiga tasvirning osuda, lekin shavqatsiz realistik usuli, markaziy voqealarning haqiqatdan mutloqo yiroqligi xos. Jahon adabiyotida fantastik, g‘ayritabiiy voqealarni bu darajada ehtirossiz va sokin ohangda yozgan adibni uchratish qiyin.

Asarning bosh qahramoni yirik bank xodimi **Yozef K.** kunlarning birida hech bir sababsiz xibsga olinadi. Sud jarayoni boshlanadi, biroq qandaydir “g‘alati” sud - g‘alati binoda, g‘alati tarzda, g‘alati sudyalari tomonidan o‘tkaziladi. K. nima gunoh qilganini anglash yo‘lida natijasiz kezinar ekan, aynan shu g‘ayrimantiqiy faoliyat, uning taqdiriga aloqasizdek tuyuluvchi so‘zlar tizmasi, tushunarsiz harakat va voqelik o‘quvchi ong ostiga absurd g‘oyasini singdirishga xizmat qiladi. “Bu romanni tushunish uchun uni uzun va murakkab tush kabi qabul qilmoq kerak”,- deb yozgan edi psixoanaliz nazariyotchilaridan biri freydschi Erix Fromm. Demak, Yozef K. ning xibsga olinishini hayotidagi turg‘unlikning ramzi, bexuda o‘tayotgan umri uchun berilgan jazo deb qabul qilish kerak. Qahramonning fojeasi shundaki, u o‘z muxitiga, odatiy hayotiga qaytishga urinadi, uni himoya qilmoqchi bo‘ladi. Umuman sud jarayoni uning ong ostida sodir bo‘layotgan murakkab ruhiy jarayon.

Kafka ijodida simvolizm (ular “G‘oyaga sezib bo‘ladigan shakl kiydirishga harakat qilganlar”), ekspressionizm (olamni oq-qora bo‘yoqlarda tasvirlash, qahramonlar niqoblarga o‘xshatilib, ma’lum g‘oya, nuqtai-nazarni ifoda qilgan) poetikasi ta’sirini ko‘rish mumkin.

Romanning 2-bobida tergovning boshlanishi aks ettiriladi. K.ga telefon orqali, qarshi bo‘lmasa, kelgusi yakshanba (ishiga xalaqit bermasligi uchun)ga tergov belgilanganini aytishdi. Yuliusshtrasse ko‘chasi. Sud joylashgan uy xaddan tashqari uzun tushgan, darvozasi xaddan tashqari baland va tarvaqaylagan. Tergov hay’ati qaerdaligini so‘rashga botinmay, go‘yoki duradgar Lensni qidirdi. Oltinchi

qavat, katalakdek xona. Bir soatu besh daqiqaga kech qolganini aytishdi. Shu yerning o'zida asarning real hayotdan uzoqligini bilish mumkin. Chunki sud ayblanuvchini bo'sh vaqtiga qarab tergovni belgilayapt.

K. hafta davomida suddan chaqiruv xatini kutdi, yakshanba kuni o'zi bordi. Nima uchun? Chaqiruv qog'ozi kelmagandan keyin bormasa ham bo'laverardi-ku? Yo'q, u boradi. Aynan shu jarayon Kafkaga xos uslub. Ya'ni qahramon o'zini aybdor his qila boshlaydi.

Asar so'ngida qahramon o'limga hukm etiladi. Yozef K. ning so'nggi gapi "Xuddi it kabi" pichoq yurakka chuqur botirilib, ikki bor aylantirilgandan keyin aytiladi.

"Jarayonda" insoniyat yo'qotgan ruhiy sokinlik sog'inchi, aybdorlik xissidan ozod bo'lish istagi bormi? Balki, "Jarayon" – dahshatli tushdir? Vaziyatning absurdligi shundaki, qahramonning o'zi sudga qachon kelishini belgilaydi va sudya uni shu vaqtda kutadi va h.k. Ehtimol bosh personaj ruhiy xastalikdan azob chekayotgandir. Xech qaysi ilmiy faraz romanni to'la qamrab ololmagan, uning tagma'nosini ochib berolmagan.

Romandan keyin **"Akademiya uchun hisobot"**, **"SHoqollar va arablar"**, **"Qonun darvozasi oldida"** kabi hikoyalar nashrdan chiqdi. H.Hesse Kafkaning hikoyat va hikoyalarni quyidagicha talqin qiladi: "Uning butun fojeasi – tushunmaslik fojeasi, to'g'rirog'i, insonni inson tomonidan, shaxsni jamiyat tomonidan, xudoni inson tomonidan soxta tushunishdir". Yozuvchining bu yillarda yozilgan asarlarida parabolizmga qiziqishni kuzatish mumkin. Kafka paradoks (barcha qabul qilgan fikr va qoidalarga zid, qarshi fikr) yaratadi. Uning proobrazi bo'lib antik adabiyoti vakili bo'lgan Tertullianning "Kredo"si xizmat qilgan: "Xudoning O'g'li chormixga tortildi – uyat emas, illo bu uyatsizlik. Va Xudoning O'g'li o'ldi – bu butunlay aniq, shubhasiz, illo bu safsata, tuturiqsizlik. Dafn qilingan bo'lsada, u tirildi – bu rost, illo mumkin emas".

1917-yili yozuvchining hayoti voqealarga boy bo'ldi: Felitsiya Bauer bilan ikkinchi marta unashtirildi. Kafka adabiyotda ham, hayotda ham romanlarini –

tugata olmadi. Falsafa bilan jiddiy shug'ullandi, jumladan Kerkegorning falsafiy qarashlarini o'rgandi, aforizmlar ustida ishladi.

Haqiqiy reallik hamma vaqt norealdir.

(Frans Kafka)

4-sentyabr kuni sil kasali bilan og'riyotgani ma'lum bo'ldi, shu paytdan boshlab u ko'p martalab davolanish uchun uzoq muddatli mehnat ta'tillariga chiqishga majbur bo'ldi. Dekabr oyida unashtirish bekor qilindi. 1918-1919-yillarda Kafka **“Otamga maktub”**dan (“Maktub” otasining qo'liga etib bormagan) tashqari deyarli hech narsa yozmadi. Tanqidchilar bu xujjatni avtobiografik tadqiqotga urinish deb baholaydilar.

Yigirmanchi yili u **“Qasr”** romani ustida ishni boshladi va ma'lum sabablarga ko'ra u ham tugallanmay qoldi. Bu roman absolyut aksiltarixiy asar bo'lib, unda vaqt va makonga ishora ham yo'q, Ispaniya yoki Janubiy Amerika haqidagi fikrlar butun asarga dissonans (ohang uyg'unsizligi) bo'lib yangraydi.

Frans Kafka ijodiga, ayniqsa, uning romanchiligiga sinchiklab qaragan kishi qiziq bir holning guvohi bo'ladi: uning birinchi romani qahramoni **Karl Rossman** deb atalsa, ikkinchi romani qahramonining ismi Yozef deb ataladi-yu, familiyasi birgina K. harfi bilan belgilanadi (**Yozef K.**). Uchinchi **“Qasr”** romani qahramonida na ism va na familiya bor. U faqat **K.** tarzida ataladi, xolos. Albatta, bu shunchaki tasodif yoki yozuvchining o'z qahramonlariga ot topolmay qolganidan emas. Balki bu holat tagida ham jiddiy ijtimoiy-estetik ma'no bor. Chunonchi, Kafkaning fikriga ko'ra, jamiyat shaxsni ezadi, sindiradi, qiyofasizlantiradi. Qiyofasiz odam esa qanday atalgani bilan qiyofasizligicha qolaveradi. Shu bois yozuvchi qahramoniga nom bermaslik orqali uning shaxssizligini, qiyofasizligini bo'rttirib ko'rsatishga erishadi.

Kafkaning salomatligi og'irlashib bordi, 1921-yili u o'zining birinchi vasiyatini yozdi, unda do'sti Maks Brodga o'limidan keyin o'zining barcha qo'lyozmalarini yoqib yuborishni so'raydi. Do'sti va so'nggi muhabbati bo'lgan

Milena Esenskayaga kundaliklarini beradi va ularni ham o'limidan keyin yo'q qilishni vasiyat qiladi. 1923-1924- yillarda M.Esenskaya Kafkaning ko'z o'ngida qo'lyozmalarning bir qismini yoqib yuboradi. F.Bauer Ikkinchi jahon urushi boshlarida Amerikaga ko'chib ketadi va uzoq muddat ularni chop etishga rozilik bermaydi, biroq keyinroq muxtojlikdan yozuvchining 500 dan ortiq maktublarini 5 ming dollarga sotib yuboradi.

O'limi oldida u o'zining so'nggi to'plami **“Golodar”** ustida ishladi. Yozuvchi bu to'plamning korrektura variantini ko'rgan bo'lsa ham, kitob bo'lib chiqishini ko'rish nasib qilmadi. Oxirgi to'plam o'ziga xos yakuniy xulosa bo'lib, hikoyalarning markaziy mavzusi – ijodkorning hayotdagi o'rni va ahamiyati, san'atning mohiyati haqidagi o'y-fikrlaridir. M.Brodga yozgan maktubida u o'z ijodiga baho berar ekan, uni “iblisga xizmat qilish” deb ataydi, chunki ularning asosida “behudalik” va “lazzatga tashnalik” yotadi. Kafka ijodining yana bir qirrasini – aforizmlar yozish bo'lib, ularning umumiy soni 109 taga yetgan. U aforizmlarni chop ettirishni rejalashtirmagan, biroq M.Brod ularning barchasini raqamlab chiqib, “Gunoh, azob, umid va haq yo'li haqida mulohaza” degan nom bilan chop ettiradi (1931). Muallif ijodi haqidagi ma'lumotlar uning kundaliklari haqida gapirilmasa to'liq bo'lmaydi. Kafka o'z kundaliklarini, ba'zi tanaffuslar bilan 10 yil davomida yozib borgan. Yozilganlarning ko'pchiligi shunisi bilan diqqatni jalb qiladiki, ular deyarli tayyor novellalardan iborat edi.

F.Kafka 1924-yilning 3-iyunida Vena yaqinidagi sihatgohda vafot etdi va Pragadagi yahudiylar qabristonida dafn qilindi. Yozuvchining hayoti haqidagi ma'lumotlar uning ijodidagi tragizm va qarashlaridagi pessimizmni chuqurroq his qilishga yordam beradi.

Asarlari: "Bir kurash tarixi" (1902-1903, birinchi asari), "Qurilish" (1923, oxirgi asari), "Amerika" (1911-1916, birinchi romani), "Jarayon" (1915-1918, ikkinchi romani), "Qo'rg'on" (1921-1922, oxirgi romani), "Evrilish", "Xukm", "Jazo koloniyasida", "Ochlik ustasi" va boshqa hikoyalari, hamda "Otamga xat" essei. Hozirgi paytga kelib yozuvchining adabiy merosi 10 jildni tashkil etadi.

Frans Kafkaning asarlari XX asr badiiy tafakkurida yuz bergan global siljishlarni hamda urush va inqiloblar davridagi ijtimoiy bo'hronlar va insonning olamdagi o'rne haqidagi yangicha tasavvurni aks ettirdi. Odatda, Kafkaga boshqa ijodkorlarning ta'siri bo'lmagan degan fikr ustunlik qiladi. Bu unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak, chunki yozuvchining qo'lyozmalarida F.Dostoyevskiy, A.Gersen, Ch.Dikkins, I.V.Gyote, G.Kleyst, G.Byuxner, F.Grilparserlar ijodiy merosining uning ijodida tutgan o'rne haqidagi ko'plab qaydlarni uchratish mumkin. Rus yozuvchisi V.Nabokov Kafka G.Flober uslubidan ijodiy foydalanganligini qayd etadi. Kafka ijodini tadqiq etgan olimlarning aksariyati uning uslubida realistik tasvir bilan asosiy voqelarning haqiqatdan mutlaqo yiroqligi uyg'unlashib ketganligini ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, fantastik, ishonish qiyin bo'lgan voqealar haqida bu qadar ehtirossiz va sokin ohangda yozgan adibni uchratish qiyin.¹⁰

Shunisi qiziqki, Frans Kafka ijodini muayyan bosqichlarga bo'lib o'rganishning, uning qaysi asari qachon yozilib, qachon chop etilganini aniqlab, uning mahorati qanday o'sib borganligini aniq tayin qilishning imkoni yo'q. Negaki, u ko'proq o'zi uchun yozadigan adib edi. Shu bois bitganlarini eng yaqin kishilariga, shunda ham unchalik xushlamay ko'rsatar, tirikligida chop etilgan bir necha asarini esa, do'stlarining zo'rlovlari bilan nashriyotga topshirgan edi. Ko'pincha, uning yozganlari stoli tortmasida qolar edi. Shuning uchun ham dunyo adibning adabiy merosi miqyosidan uning o'limidan so'nggina xabardor bo'ldi. Shunga qaraganda, Frans Kafka asarlarini shuhrat orttirish yoki qalam haqi uchun emas, balki yozmaslikning ilojini topmagani uchungina yozgan deyish mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Kafka o'zi uchun, o'z hayotidan kelib chiqib ko'proq yozgan, degan qarashlar to'g'ri. Bo'lmasa, u o'z asarlarini yaxshi ko'rmas, ularni chop ettirishga qiziqmas, hatto o'limi oldidan do'sti Maks Brodga o'zining chop etilmagan barcha qo'lyozmalarini tezda yoqib tashlashni vasiyat qilmagan bo'lardi. Shu o'rinda Kafkaning adabiyot borasidagi qarashlari buning yorqin dalili ekanligini ko'rish mumkin. «Menda adabiy qiziqishlar yo'q, men o'zim adabiyotdan iboratman», - degandi Kafka do'stlaridan biriga. U o'z asarlari

¹⁰ Qosimov A., Xo'jayev S. XX asr g'arb adabiyoti. T.:Akademnashr, 2011. – B. 20.

haqida: «Men ularni yaratgan onlarnigina hurmat qilaman, xolos - derdi. Kafkaning yozgan asarlari tamomila kutilmagan va o'ziga xosligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

III. IKKINCHI BOB. Nazar Eshonqul hikoyalarida modernizmning tasviriy usuli.

Hikoya – epik turning kichik shakli. Hikoya odatda, qahramon hayotidan bitta (ba’zan bir-biriga uzviy bog’liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi hikoyaning hajman kichik, syujeti soda, ishtirok etuvchi personajlar sonining kam bo’lishini taqozo etadi. Har qanday voqea ham hikoyabop emas. Hikoya asosida yotgan voqeaning yaxlit, tugal bo’lishi talab etiladi, buning uchun u o’zining boshlanishi va yakuniga ega bo’lishi (masal, latifadagi kabi) lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi. Hikoyaning ikki tipi bo’lib, birinchisida ocherklilik (tavsifiy-rivoyaviy), ikkinchisida novellistiklik (konfliktli-rivoyaviy) xususiyati ustundir. Adabiyotshunoslikda bularning birinchisini hikoya, ikkinchisini novella deb farqlash amaliyoti ham mavjud.¹¹

Hikoya ko’proq prozaik tuzilishga ega bo’lsa ham, ayrim hollarda she’riy shaklda ham yaratiladi.

Hikoyada inson va uning hayoti muchun xarakterli bo’lgan epizodgina ko’rsatiladi. Unda inson hayotidagi ayrim hodisa, bu hodisaning yuzaga kelishi hikoya qilinadi. Hikoyaning syujeti asosini tashkil etgan hodisaning tuguni, kulminatsiyasi, yechimi bo’ladi. Lekin unda bu hodisaning rivoji ko’rsatilmaydi.¹²

Hikoyada ijtimoiy va ma’naviy hayotning turli-tuman masalalari ko’tarib chiqilishi mumkin, ammo ular, huddi roman yoki povestdagidek, keng ko’lamda tasvir etilmaydi. Hikoya rivoyaning intensivligi va qisqaligi bilan xarakterlanadi. Hikoyada romandagidek qistirma epizod ham, lirik chekinishlar ham bo’lmaydi, uning ramkasiga bular sig’maydi.¹³

Hikoya janrining jahon adabiyoti tarixida ham (O.Balzak, G.Mopassan, J.London, A.S.Pushkin, A.P.Chexov, E.Xeminguey va b.), o’zbek adabiyoti

¹¹Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug’ati. T.: Akademnashr, 2010. – B.391.

¹²Zunnunov A., Hotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo’llanma. T.:O’qituvchi,1978. – B.127.

¹³Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: O’qituvchi, 1979. – B.199.

tarixida ham (A.Navoiy, N.Rabg'uziy, Gulxaniy, Xoja, A.Avloniy va b.) o'ziga xos taraqqiyot yo'li bor.

Keyingi davrlarda o'zbek adabiyotida hikoyaga bo'lgan qiziqish yanada kuchaymoqda. Iste'dodli hikoyanavislar o'zbek adabiyotida hikoya janrining rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishmoqda.

80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida adabiyotimizda boshqa janrlarda bo'lgani kabi hikoya janrida ham yangi yo'nalishdagi hikoyalar paydo bo'ldi. Bu hikoyalarda asrga tengdosh, umri asrning alg'ov-dalg'ovlari, bema'ni maqsadlar yo'lida o'tgan, adashgan odamning fojeaviy qismati betakror tarzda tasvirlangan. **Nazar Eshonqulning** “Maymun yetaklagan odam”, “Shamolni tutib bo'lmaydi”, **Xurshid Do'stmuhammadning** “Ibn Mug'anniy”, **Shukur Xolmirzayevning** “Haykal”, “Ko'k dengiz” hikoyalari ana shunday asarlar sirasiga kiradi.¹⁴

90-yillar boshlarida adabiyotimiz xazinasi talay yangi qissa va hikoyalar bilan boyidi. Otaxon adibimiz **Asqad Muxtorning** “Ko'k tosh”, “Jinni”, **Normurod Norqobil** qalamiga mansub “Podachining osmoni”, **Abduqayum Yo'ldoshning** “Ota o'g'il”, **Sabridin Sadridin Maxdum o'g'lining** “Olmos qo'ng'iroqlar” hikoyalari shu jihatdan ibratlidir.¹⁵ Bulardan tashqari mustaqillik yillarida ijod qila boshlagan **Zulfiya Qurolboy qizining** hikoyalari ham o'ziga xosligi bilan diqqatga sazovordir.

O'zbek adabiyotida o'zining noan'anaviy shakl va mazmundagi, modernistik ruhga qorishib yozilgan asarlari bilan tanilgan yozuvchilarimizdan biri – **Nazar Eshonqul**dir.

Nazar Eshonqul 1962-yil 15-iyunda Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Tersota qishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan(1986). Dastlabki asari – “**Urush odamlari**”(1988). Shundan so'ng yozuvchining “**Maymun yetaklagan odam**”(2001), “**Shamolni tutib bo'lmaydi**”(2004), “**Momoqo'shiq**”(2006) kabi asarlari nashr etilgan. 2008-yili “**Yalpiz hidi**” nomli qissalar va hikoyalar to'plami chop etildi. Yozuvchilikdan

¹⁴ Ashurov H. XX asr 80-90-yillar o'zbek hikoyachiligining janr xususiyatlari(Magistrlik dissertatsiyasi). Farg'ona – 2006.

¹⁵ Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T., 2009. – B.128.

tashqari Nazar Eshonqul F.K.Anittining “Hikoyalar va qissalar”ini, A.Kamyuning “Esselar”ini, Chexovning “Bolaxonali uy” hikoyasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.¹⁶

Nazar Eshonqul hikoyalarida g‘ayrioddiy hodisalarga e‘tibor ortadi, turmush iker-chikirlari keyingi o‘ringa o‘tadi. Muallif soddalik, ixchamlilik, detallarning haqqoniyligi talablarini ularning ziddi o‘laroq favqulodda, g‘ayritabiiy qilib tasvirlaydi. Detallarning o‘rni va vazifasi ahamiyatsiz bo‘lib qoladi (**“Shamolni tutib bo‘lmaydi”** hikoyasi qahramoni Bayna momoning dushmani Zamon otboqarning barmoqlarini kesib olish) yoki asar syujeti boshdan-oyoq ramz asosiga quriladi (**“Muolaja”, “Istilo”, “Tobut”**).

Ayni paytda yozuvchi ijodidda adabiyotimiz uchun yangicha tafakkur, ya‘ni voqea-hodisa yuz berayotgan joy. Baqtning mavhum tus olishi kuzatiladi. Asar voqealari qandaydir cho‘l posyolkasi, noma‘lum joyda bo‘lib o‘tadi, personajlarning milliy xususiyatlari, til individualligi ikkinchi darajali narsaga aylanadi.

Qahramonlar ham g‘ayrioddiy kishilar – ular o‘zgalaridan ajralib turuvchi alohida shaxslardir. Nazar Eshonqulning qahramonlari ko‘pincha hayot zarbalaridan xo‘rlangan kimsalar yoki inson umridan ma‘no, mohiyat izlovchi bezovta ruhli, o‘zini-o‘zi tahlil etuvchi va iztirob chekuvchi kishilardir.

Yozuvchi ijodidagi o‘zgachalik alohida diqqatni talab qiladi. Kitobxon beixtiyor tagma‘no izlaydi va muhimi uni topadi.¹⁷

Adibning **“Maymun yetaklagan odam”** hikoyasida sarlavhaning o‘zi ham o‘quvchini mushohadaga undaydi. Hikoya sarlavhasini o‘qigan har qanday kitobxon maymun odamni yetaklaganmi yoki odam maymunni, deb o‘ylaydi va bu hikoyani o‘qib bo‘lgach, javob topadi. Rassom chol atrofdagilardan uzilib qolgan, hech kim bilan muomala qilmaydi va ayni paytda hech kimni nazariga ilmaydi. Atrofdagilarga nisbatan esa alamzada.

¹⁶ Internet ma‘lumoti.

¹⁷ Ashurov H. XX asr 80-90-yillar o‘zbek hikoyachiligining janr xususiyatlari (Magistrlik dissertatsiyasi). Farg‘ona – 2006.

Hikoya qahramoni o'z umrini, hayotini, bor zakovatini asrning "ulug' ishlari"ga tikgan, bu borada u o'zini ham, o'zgalarni ham ayamagan. U ish deb, prinsip deb qarindosh-urug'laridan judo bo'lgan, yaqin o'rtoqlari, do'st-birodarlari ham yo'q. Eng yomoni, uning qalbida qarigan chog'ida, bu foniyl dunyodan boqiy dunyoga rixlat qilish yaqinlashgan damlarda ruhan taskin topib ovinadigan ilohiy e'tiqod yo'q.

Bu odam umr bo'yi tayangan mafkura, mana shunday ilohiy ne'matlardan, ko'ngil xazinasidan mahrum etgan. Bu asrda qanchadan-qancha odamlar shu holda aldovlarga uchib, iymon-e'tiqodsiz bu dunyodan o'tib ketdi. Hikoya qahramoni hayotini tikkan tuzum, jamiyat, mafkura shitob bilan yemirilib ketgan, unga qo'shilib bu kimsaning ham bor bisoti ham yemirilgan.

Yozuvchi qahramon qiyofasini chizar ekan, hikoyada murakkab inson xarakterini yaratadi va bu xarakterning badiiy talqinini mazmun orqali o'quvchiga yetqazadi. Hikoyani o'qir ekanmiz, rassom cholning chizgan suratlarida o'zbek xalqining yetmish yillik mafkuraviy tutqunlik davridagi hayoti yaqqol aks etganligini, sobiq sho'ro davrining o'zbek xalqi taqdirida qoldirgan qora izlarni ko'ramiz. Chol o'zining ijodini yigirmanchi yillarda boshlagan bo'lsa-da, bu yillardagi ijodini u yashaydigan ko'chadagi bir-ikkita san'atdan xabardor kishilardan boshqa hech kim bilmaydi. Asarda chol bu yillarda komsomol safida turib, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etganligi, o'ttizinchi yillarda ma'sul vazifalarda ishlaganligi hikoya qilinadi. Ana shu suronli yillarning ruhiy iztiroblari chol chizgan suratlar silsilasiga ham o'z muhrini bosgan. Hikoyachi qahramonning e'tiborini tortgan surat ostiga 1921-yil sanasi yozilgan. "Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo'ls-da, ranglari tiniq va yorqin edi. Suratda quyuq o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta, gavdali yigit tasvirlangan edi. Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo'yniga solingan kishan tarang tortilgan edi".¹⁸

Yozuvchi chol chizgan suratlarini tasvirlar ekan, har bir so'z, rang va badiiy chizgiga alohida ma'no yuklaydi. Yigitning ko'zlari tiyrakligidan biz inson

¹⁸ Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam // Yalpiz hidi. T.: Sharq, 2008. – B. 339.

hayotining ibtidosi, uning har bir narsaga ishonch bilan boqishida esa yashashga bo'lgan beqiyos ishtiyoqi mujassamlashganini ko'ramiz. Maymunni yetaklab kelayotgan odam tasvirlangan bu suratda "qizg'ish va javdari" bo'yoq ustivorligida ham muayyan ramziy ma'no bor. Qizg'ish bo'yoq inson tomirida oqayotgan qon timsoli sifatida berilgan. Bo'yoqlarning tiniqligi maymunlar kechmishidan insoniyat olami sari kirib kelayotgan mavjudotning ko'ngli hali shu bo'yoqlar kabi musaffo, uning orzulari naqadar go'zal ekanligining ifodasidir. Lekin surat zahirida "kuzgi qarg'alar misol mavhumlik"ning berilishi beadad hududda yastanib yotgandek tuyular edi, bu esa yashash uchun intilayotgan, yaxshi orzular quchog'ida yotgan har bir inson qismatida yomon kunlar ham bo'lishi va bu kunlar qachon, qay holatda o'tishi noma'lum bo'lishiga ishora qilayotganday bo'ladi.

Cholning 30-yillardagi suratlarida esa yorqin javdari bo'yoqlar o'rnini qora ranglar egallagan. 1917-yillarda boshlangan sho'ro inqilobini xalqimiz quvonch bilan kutib oldi, unga ishondi va yorug' kunlar kelishiga umid bog'ladi. Oktyabr to'ntarishi xalqimiz boshiga 30-yillarda qora kunlarni olib keldi. Yalpi qatag'on qilishlar boshlanib ketdi. Shu yillarda boshlangan qatag'on xalqning boshiga og'ir kunlarni soldi, millatning guli bo'lgan ziyolilar yo'q qilindi, hamma yerda vahima, har bir xonadonda motam. Xo'sh, bunday kunlarning bo'lishiga kinlar sababchi, maqsad nima? Adib xalq boshiga bu kunlarni solganlarni o'laksaxo'r quzg'unlarga o'xshatadi, ularni yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jonivorlarning niqobini kiyib olgan kimsalar deb ta'riflaydi, ularning asl basharalarini ko'rsatib beradi va suratlardagi bo'yoqning chaplanib tashlanganligi bilan o'sha yillardagi alg'ov-dalg'ovliklarga ishora qiladi.

Asarda rassom cholning yana bir fikri bizni ko'pgina haqiqatlarni nglashga undaydi. Bu yaxshilik bilan yomonlik haqidagi cholning mulohazalaridir. Ikki mansabdor shaxsning faoliyati haqida hikoya qilgan adib asarda "Odam mashina emas" degan jumlaning qo'llaydi. Shu so'zlar orqali o'sha davr siyosati uchun odam mashina sanalgan, tepadan kelayotgan har qanday buyruqlarni so'zsiz bajarish lozim bo'lgan davrlar fojeasi ko'z ongimizda namoyon bo'ladi. Yozuvchi buyruqlar kim tomonidan berilyapti, nima maqsadda, ma'muriy buyruqbozlik

tizimining qurboniga aylangan ikki shaxsdan qay biri to'g'ri yo'l tutayapti, bu haqda ochiq-oydin munosabat bildirmaydi. Xulosa chiqarishni o'quvchining o'ziga havola qiladi va kitobxon ko'z o'ngida mamlakatimizda paxta yakkahokimligi avj olgan, qo'shib yozishlar-u qog'ozbozliklarning ayanchli oqibatlarini aks ettiriladi. Yozuvchi shu o'rinda rassom cholning do'sti buyruqlar mustabidligiga qarshi qanday kurashganligini ko'rsatib beradi. Uning bu xususdagi xulosasi "bitta sen halol bo'lganing bilan hayot go'zal bo'lib qolmaydi",¹⁹ degan hikmatomuz ibora orqali ifodalanganki, bu so'zlar muayyan bir mansabdor shaxsning yakka o'zi burruqbozlikka qarshi kurashgani bilan dunyoda yaxshilik to'la tantana qila olmasligini ta'kidlaydi va bu dunyoda e'tiqod degan tushunchaning yo'qolib ketganligidan kuyunib gapiradi.

Hikoyachi yigitni cholning so'nggi chizgan surati beixtiyor o'ziga tortadi. Bu suratda ham birinchi suratdagi o'rmon aks ettirilgan edi. Faqat qarib qolgan, umidsiz ko'zlariga g'am cho'kkan, mung'aygan bir cholni maymun o'rmon sari yetaklab ketardi. Birinchi suratda odam maymunni yetaklab ketayotgan bo'lsa, so'ngisida maymun odamni. Surat sariq rangli matoga chizilgan. Mana shu sariq rang ham asarda muayyan ahamiyat kasb etgan. Suratning shoshib chizilishi inson umri poyoniga yetganda ham, uning hali qilib ulgurmagan ishlari borligi, bu dunyodan umid uzib keta olmasligini anglatadi. Eng achinarlisi shuki, birinchi suratda maymunlar dunyosidan insoniyat dunyosiga yuz tutgan maymun endi insonning zavolga yuz tutganidan mag'rurlanib, uni quyuk o'rmon sari, jaholat sari yetaklab bormoqda.

So'ngi suratdagi o'rmon bu oddiy o'rmon emas, adib tasviricha, sokinlik va yolg'izlik o'rmoni. U hayot kurashlarida mag'lub bo'lib, oddiy maymun qo'lida asir. Hayot tashvishlaridan qutulishning birdan-bir yo'li ham shu.²⁰

Nazar Eshonqulning bu hikoyasida ham boshqa hikoyalaridagi kabi inson hayotini ko'proq qora ranglarda tasvirlanishi o'quvchi diqqatini jalb qiladi. Bu ham adibga xos xususiyat, modernizm ruhining yuqoriligidan dalolat.

¹⁹ Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam // Yalpiz hidi. T.: Sharq, 2008. – B. 343.

²⁰ Ashurov H. XX asr 80-90-yillar o'zbek hikoyachiligining janr xususiyatlari (Magistrlik dissertatsiyasi). Farg'ona – 2006.

Yozuvchining yana ko'plab shu kabi hikoyalari bo'lib, ularda ham hayot sinovlariga dosh berolmay izsiz yo'q bo'layotgan, mutelikdan qutulolmay sinib ketayotgan, hamda o'zligini yo'qotib o'zgalar qo'lida o'yinchoq bo'layotgan insonlarning ayanchli taqdiri yorqin va aniq ranglarda aks ettirilgan. Eng muhimi, har bir hikoyaning yakuni uni o'qigan har qanday o'quvchini o'ylantirib, hayot past-balandliklarini o'ylashga majbur etadi.

Nazar Eshonqul o'zining ilk hikoyalari bilanoq adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Natijada bu hikoyalar xususida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilib, ularning g'oyaviy-mavzuiy o'ziga xosligi, badiiy idrok va ifoda prinsiplari, ijodkorning badiiy mahorati masalalari atroflicha tadqiq etildi.²¹

Nazar Eshonqul hikoyalarining o'zaro – ruhan yaqinligi ma'naviy-axloqiy masalalar ustivorligi bilan belgilanib, insonni badiiy tasvirlashdagi individual tafakkur tabiatining ijodiy yo'sini bilan xarakterlanadi. Ularda insonni badiiy tushunish hamda tushuntirishda ikki yo'nalish ko'proq ko'zga tashlanadi.

Birinchidan, xalqimizning milliy mustaqillikka erishgungacha kechgan hayotidagi erkka tashnalik kayfiyati hamda milliy istiqlol arafasidagi odamlarning ruhiy holatlari va jamiyat hayotini yoritishga harakat qilinadi.

Ikkinchidan, ezgulik, adolat tantanasi uchun g'ov bo'lgan ma'naviy-axloqiy illatlarni fosh etishga intilish, haqiqatning tantana qilishiga ishonmagan, ko'ngli mudroq odamlar ruhiyatini jamiyat psixologiyasi bilan uzviy aloqadorlikda tahlil qilish va ana shunday bedard kimsalar amal qiladigan falsafa mohiyatini ramzlilar tilida ochib berish hamda shaxsning parchalanish sabablarini badiiy-falsafiy o'rganish alohida tamoyilni tashkil etadi.

Har bir kimsaning ruhi, qalbi bo'lgani singari har bir asarning ham o'ziga xos ma'naviy dunyosi bo'ladi. Bu esa ijodkorlarning o'ziga xos va betakror ma'naviy-intelektual salohiyatidan vujudga keladi. Nazar Eshonqul hikoyalarida kuzatilganidek, har bir ijodkor ramzlarga burkangan badiiy nigohi bilan ham alohida xususiyatlarga ega. Zero, adibning har bir hikoyasida o'ziga xos ma'naviy-axloqiy masalalar yetakchilik qiladi. **“Shamolni tutib bo'lmaydi”** hikoyasida

²¹ Matyoqubov S. Nazar Eshonqul hikoyalarida ijodiy individuallik // O'zbek tili va adabiyoti, 2011, №5. – B. 45.

inson xotirasi – sha’ni masalasi keskin ikki qutbga bo’lingan yetuk insoniylik va yuztuban ma’naviy tubanlik o’rtasidagi kurash jarayonida aks ettiriladi. Hikoyadagi hayot materialining yangicha badiiy talqini undan yangicha ma’nolar uqishimizga ko’mak beradi. Bu boradagi muallif tanlagan ob’yektiv, xolis tasvir o’quvchiga fikrlash uchun keng imkoniyatlar tug’diradi. Bayna momo ruhiyatidagi ikki qutb – tiriklik bilan o’lim oralig’idagi umr manzarasini chizish, kayfiyat-kechinmalari ranglarini ko’rsatish hikoyada ustivor yo’nalish kasb etadi.²²

“Yillar bilan birga hamma narsa o’zgarar, faqat Bayna momogina uni sezmas, go’yo uning uchun vaqt o’sha holicha qotib qolgandek, uni o’sha ellik yil oldingi eri va o’g’lining o’ligini bolshovoy askarlar tepkilab ko’mishgan ustun oldidan toppish mumkin edi”.²³ Hikoyada jamiyat hayotidagi o’zgarishlar konkret holatlarni ko’rsatish orqali kuzatiladi. Ana shu voqelikdagi yangiliklar mohiyatini badiiy holatlar, lavhalar yaratish asnosida shaxs qalbiga murojaat etiladi. Shuni ham e’tirof etish lozimki, hikoyadagi Bayna momo sho’ro davri nasridagi aksar qahramonlar singari jamiyatdagi o’zgarishlarga, xalq hayotidagi yangilanishlarga o’z munosabatini bildiruvchi, o’z faoliyati bilan tirikligini go’zalliklar bilan burkovchi ijtimoiy faol shaxs emas. Unga o’z hayotini yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati bilan safarbar o’ktam ayol xususiyatlari butkul yot. U biz aksar asarlarda o’rganib qolgan ma’nan va intellektual jihatdan yetuk qiyofasi bilan ham ko’zga tashlanmaydi. Momo jamiyat hayoti, xalq taqdiri va atrof-tevaragida kechayotgan voqelik bilan na ruhan, na jisman bog’liqlikga ega.

N.Eshonqul talqiniga ko’ra, dunyo boqiy, hayot abadiy, tabiat fasllarining almashinib turishida inson umrining o’tkinchiligi anglashilsa-da, inson hayoti chegaralangan emas. Shuning uchunmi, tabiatdagi o’tkinchi daqiqalar bilan Bayna momo ko’nglidagi tuyg’ular evrilishi adib diqqatini ko’proq o’ziga tortadi. Kun va tunlarning almashishi, tabiat fasllarining tadrijiy joy talashib turishida baqoning bebaqoligi anglashiladi. Tabiat fasllariga, borliqning jonli lahzalariga munosabatdan, odamlar bilan muomala-muloqotlardan yuzaga kelgan nafrat,

²² Matyoqubov S. Nazar Eshonqul hikoyalarida ijodiy individuallik // O’zbek tili va adabiyoti, 2011, №5. – B. 46.

²³ Eshonqul N. Shamolni tutib bo’lmaydi // Yalpiz hidi. T.: Sharq, 2008. – B. 252.

o'kinch va alam kabi tuyg'ularning turfa ko'rinishlari ham Bayna momo ruhiyatidagi kechinmalar ma'nosidan voqif etadi.

Izlanishlaridagi ramziy va falsafiy mazmundorlik adib ijodining o'ziga xosligi, individualligini belgilaydi. Aytayli, X. Do'stmuhammad alohida ta'kidlaganidek: "N.Eshonqulning deyarli barcha asarlarida qo'lansa is qahramonning ruhiy holatini bo'rttirib tasvirlashda o'ziga xos vositaga aylanadi. Ehtimol, ayrim o'rinlarda yozuvchi qora bo'yoqni haddan tashqari quyuqlashtirib yuborgandek tuyular, lekin bu tasodifiy emas, Nazarning tasvirlashida tasodifiylik, noaniqlilik, nokerak tashbehlar uchramaydi, zero, u so'zni nihoyatda nozik his etadi, boshqacha aytganda, N.Eshonqul o'z so'ziga javob beradigan yozuvchilar sirasiga kiradi".²⁴

N.Eshonqul hikoyalaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan biriga munosabat bildirar ekan, U.Normatov shunday yozadi: "N.Eshonqulning bu tur hikoyalarida qahramonlarning nomi yo'q – ular faqat "U" yoki hayotda amali, kasb-hunari nomi bilan "Kotib", "Qorovul", "Me'mor" deb yuritiladi. Insonning ichki va tashqi qiyofasini chizishda anchagina tajriba orttirgan muallif bu xil personajlar tasviriga kelganda bir qarashda hafsalasizlik qilganday taassurot qoldiradi. Aslida esa shu xil "hafsalasizlik"da muayyan maqsad bor: hikoya personajlari bema'ni, shafqatsiz hayot tazyiqi ostida shu hayotdan begonalashgan, shaxsini, insoniy qiyofasini yo'qotgan yoki yo'qotayozgan kimsalardir".²⁵

"Zulmat saltanatiga sayohat" hikoyasi qahramoni mashhur adib M. yolg'iz yashaydi. Keyingi o'n-o'n besh yil ichida hech kim bilan sirlashmaydi. Jurnalist qiyofasidagi lirik personaj M. ijodiy dunyosiga safar qilish, ijodi haqida suhbatlashish niyatida uning uyiga keladi. "M. tamaki va yana qandaydir qo'lansa hidlar o'rnashib qolgan to'shakda cho'zilib yotardi; tinmay tamaki tutatar va po'k-po'k yo'talardi. Xonasi ham huddi hayoti kabi palapartish edi. Men tozalanmagan stolni, isqirt to'shakni, derazadan ko'ra tuynukni eslatadigan romlarni,

²⁴ Do'stmuhammad X. Nazarning umidbaxsh kemalari // Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. T.,2004. – B.4.

²⁵ Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. T., 2000. – B. 9.

o'qilmaganiga ham allazamonlar bo'lgan chang bosgan kitoblarni ko'zdan kechirar ekanman, har bir odam o'ziga munosib boshpana tanlaydi, deb o'yladim".²⁶

M. ning ijod dunyosi bu hayotda har bir narsadan tushkunlik va umidsizlik izlayverib, o'zi ham tushkunlikning bir parchasiga aylanib qolgan, hayotning mudhishligini ixlos, shavq bilan tasvirlagan zulmat olamidir. M.ning asarlarida nurdan ko'ra soyalar, ezgulikdan ko'ra razolat, qabohat, yaxshilikdan ko'ra yovuzlik yayrab-yashnab, emin-erkin yashaydi. Asardagi N. ismli qizning Q. ismli personajlar ruhiyatini kuzatishi orqali M.ning ma'naviyati sahifalari birma-bir ochila boradi. Ana shu usul M.ning qo'rquvga ("qo'rquv odamlarni boshqaradi", deb biladi) asoslangan hayot sahifalarini birma-bir varaqlash imkonini beradi. "...U o'zini o'rab turgan bu qiyofasiz olamga qiyofa berish uchun daf'atan shunchalar zulmatga burkagandiki, oqibatda bu zulmat uning qasosga to'la o'kirigiga aylangan edi", "...M.ning uzuq-yuluq jumalari kabi xaroba uylar orasidan ketib borardik. Bu vayronalikdan M.ning umr hidi kelar – muqarrar tanazzuldan darak berardi".²⁷

Ko'rinadiki, "Zulmat saltanatiga sayohat" hikoyasida ham hid va shu'la obrazlari ramziylik tabiatiga ko'ra chuqur ijtimoiy mazmun tashib kelayotir. U tanazzulga yuz tutgan, butkul umri qo'rquv va mutelikda kechgan M. hayotini, badbo'y tirikligini anglatish barobarida, qo'rquv saltanatiga qurilgan jamiyat odamlar taqdirini nes-nobud qilishini, ongi-shuurini boshqarishini ham anglatib turadi. Hid va shu'la obrazlari yaxlit uyg'unlikda N.Eshonqulning mustaqillik davri hikoyalarida badiiy talqin etilayotgan qo'rquv va baxtsizlik, shaxs erki va ko'ngil muteligi, fikr qulligi xususida umuminsoniy mazmun va mohiyatga ega bo'lgan keng mulohazalar yuritish imkonini beradi. Aytish mumkinki, hid va shu'la kabi obrazlar adibning dasxatiga aylanib qoldi. Bu hol N.Eshonqul ijodiy individualligini belgilab beruvchi xususiyatlardan biridir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, N.Eshonqul hikoyalaridagi har bir jumla badiiy ifoda tarziga ko'ra qahramon ruhiyatini, qilmish-qidirmishlarini ayon etish

²⁶ Eshonqul N. Zulmat saltanatiga sayohat // Maymun yetaklagan odam. T., 2004. – B.161.

²⁷ Eshonqul N. Zulmat saltanatiga sayohat // Maymun yetaklagan odam. T., 2004. – B.162-165.

barobarida, yana yangi fikr tug'diradi. Qolaversa, adib asarlarida so'zlar jaranglamaydi, yaltiramaydi, shovqin-suron ko'tarmaydi. Ular ma'yus, mahzun, dardchil va dilgir suhbatdosh sifatida namayon bo'ladi. Ular hamisha odamni o'ylashga, o'zini tanishga, o'zligini anglashga va shu jarayonda o'zligini ayon etishga undaydi. Shu taxlit ajib va sirli tafakkur hayotiga olib kirib, ma'naviy-intelektual hayotidagi kechinmalar manzarasi bilan tanishtiradi.²⁸

Yozuvchi hikoyalarida so'zlarning aniq va lo'ndalik bilan qo'llanilishi uning so'z qo'llash mahoratidan dalolatdir. Bu so'zlarning esa hikoyalarda o'ziga xos estetik zavq berishi esa o'quvchini o'ziga jalb qiladi. Eng muhimi, adib bu so'zlarni qo'llashda tasvirlanayotgan ob'yektning ma'naviy, axloqiy holatlarini inobatga olgan holda, ularni inson xarakteriga uyg'unlashtirgan holda ifodalab beradi. Bu esa adibning ma'naviy-axloqiy dunyosining kengligi va boyligidan dalolatdir.

²⁸ Matyoqubov S. Nazar Eshonqul hikoyalarida ijodiy individuallik // O'zbek tili va adabiyoti, 2011, №5. – B. 48.

IV. UCHINCHI BOB. “Jazo kaloniyasida” va “Muolaja” hikoyalarining qiyosiy tahlili.

Qiyosiy metod – fanning turli sohalarida, jumladan adabiyotshunoslikda ham keng qo'llanuvchi tadqiqot usuli. Ushbu usul mohiyati ikki va undan ortiq narsa-hodisalarni o'zaro qiyoslab, ularning o'xshash hamda farqli tomonlari, bularni keltirib chiqargan omillarni aniqlash orqali muayyan ilmiy xulosa va umumlashmalar chiqarishdan iboratdir.

Adabiyotshunoslikda qiyosiy metodni qo'llash imkonlari juda katta, chunki qiyoslab o'rganilishi ilmiy jihatdan ahamiyatli bo'la oladigan ob'yektlar doirasi benihoya keng: asar bilan boshqa bir asar (bir adibning yoki bir necha adibning asari; bir janrda yaratilgan asarlar, turli davrlarda yaratilgan asarlar va h.); bir adabiy hodisa bilan boshqa bir adabiy hodisa (bir davrdagi adabiy hodisalar; turli davrlardagi adabiy hodisalar va h.), bir davr adabiyoti bilan boshqa bir davr adabiyoti, bir milliy adabiyot bilan boshqa bir milliy adabiyot va h.

Qiyosiy metod asosidagi tadqiqotlar keng ko'lamli nazariy umumlashmalar chiqarish, adabiyotning yashashi va taraqqiyotiga oid umumiy qonuniyalarni aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotshunoslikda qiyosiy metod XIX asrdan boshlab, ayniqsa, keng qo'llanila boshladi, adabiy hodisalarni tarixiy aspektda qiyoslab o'rganishga e'tibor kuchaydi: tarixiy-qiyosiy adabiyotshunoslik (komparativizm) maydonga keldi.

Hozirgi adabiyotshunoslikda ham qiyosiy metoddan, jumladan, **tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik** tadqiq usullaridan keng foydalaniladi.²⁹

“Komparativistika” atamasining o'zi (qiyosiy adabiyotshunoslik) ushbu metodning asosini qiyoslash tashkil etishini ko'rsatadi. O'zining so'ngi “Gumanitar fanlar metodologiyasiga doir” nomli tadqiqotining qoralamalarida (1974) M.M.Baxtin shunday qayd qilgan edi: “...matn (kontekst) faqat boshqa matn bilan tutashib turgan holda yashaydi. Orqani ham, oldinni ham yorituvchi,

²⁹Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. T.: Akademyanashr, 2010. – B.380.

mazkur matnni dialog bilan qovushtiradigan nur faqat ana shu matnlarning tutashuv nuqtasidagina porlaydi”. Aynan ana shu “matnlarning tutashuv nuqtasi” **qiyosiy adabiyotshunoslikning** predmetini tashkil etadi. Tadqiqotchilar komparativistikaning predmeti dunyo soʻz sanʼatining butun rivojlanishidir, deb hisoblaydilar.³⁰

Adabiyotda komparativistika tamoyillaridan kommunikativ zanjirning har qanday qismini tahlil qilishda foydalaniladi. Turli adabiyotlarga mansub boʻlgan hodisalarni taqqoslab oʻrganish qiyosiy adabiyotshunoslikning maxsus sohasidir. Hammag maʼlumki, komparativ tahlil tamoyillari aynan bitta adabiyotning ichida uning davrlarini, yozuvchilari va asarlarini oʻrganishda keng qoʻllaniladi. Fan sifatida adabiyot tarixi uchun qiyosiy adabiyotshunoslik umummetodologik ahamiyatga ega.

Taniqli rumin komparativisti Aleksandr Dimaning xulosalariga koʻra qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy maqsadi uch xil turdagi hodisalarni oʻrganish bilan belgilanadi:

- 1) adabiyotlararo toʻgʻridan-toʻgʻri aloqalar – tarjimalar, taʼsir, oʻzlashtirmalar;
- 2) genetik qardoshlikda boʻlmagan, lekin maʼlum mavzu, mif, obraz, janr, oʻxshash (yaqin) adabiy oqimlarni tadqiq etishda namoyon boʻluvchi genetik oʻxshashliklar;
- 3) milliy adabiyotlarning oʻziga xos jihatlari.³¹

Hozirgi kunda ilm fan, axborot texnologiyalari tezkor surʼatlarda va yuksak darajada rivojlanayotgan boʻlsa-da, badiiy adabiyot xali hanuz insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi kundagi umumbashariy muammolarning koʻpayishi va ularning keskin surʼatlarda rivojlanib borishi milliy adabiyotimizda ham, jahon adabiyotida ham izchillik bilan tahlil etilmoqda. Shu sababli har ikki adabiyot vakillarining asarlari oʻzaro qiyoslab oʻrganilganda ayrim

³⁰ Komilova S. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi masalasiga doir // Oʻzbek tili va adabiyoti, 2009, №6. – B. 77.

³¹ Qosimov A. Adabiyotda tipologik oʻxshashliklar va oʻzaro taʼsir. T.: Fan, 2004. – B.4.

muammolarning bir-biriga yaqinligi va o'xshashligini ko'rish mumkin. Bu sohada adabiyotning komparativistika sohasiga ehtiyoj seziladi, hamda bu muhim ilmiy – nazariy ahamiyatga egadir.

Asarlarni o'zaro qiyoslab o'rganish orqali avvalo yozuvchining badiiy mahorati ochib beriladi va uning milliy adabiyotda yoki jahon adabiyotidagi mavqeyi belgilanadi. Yozuvchining o'ziga xos iste'dodini, mahoratini va yashirin qirralarini aniqroq bilib olish uchun boshqa bir ijodkorning o'xshash aari bilan qiyoslab o'rganish muhimdir. Bu esa, hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan asarlardagi o'xshashlikliklarni **tipologik qiyoslash** orqali isbotlab berishga katta qiziqish uyg'otmoqda.

XX asr jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Frans Kafka asarlarida o'ziga xos jihatlar va modernizm ruhining yuqoriligi barchaga ma'lum. Uning roman va hikoyalarida gunohga botgan inson qismati boricha tasvirlanadi. Insonga, uning qalbi va ruhiyatiga bo'lgan ishonch Kafka ijodining asos ildizidir. Uning asarlariga e'tibor berilsa, ulardagi jumboqlar, sirliliklarga qaramay, ma'lum ma'noda yakunga egaligini ko'rish mumkin. Agar o'quvchi Kafka hayoti bilan tanish bo'lsa, har bir asar uning hayotining ma'lum bir bosqichini aks ettirayotganini anglay oladi.

Odatdagi hikoyalarni o'qib o'rgangan inson F.Kafka hikoyalarini o'qib, dastlab hech narsaga tushunmasligi aniq. Bularning yechimini topish uchun asarga jiddiy e'tibor qaratib, Kafkaning shaxsiyatiga xos xususiyatlardan xabardor bo'lish va eng muhimi, o'zini adibning o'rniga qo'yib ko'rgan insongina nimanidir anglaganday bo'ladi. Shundagina uning hikoyalari biz bilgan va yashayotgan real hayotdan qo'rqinchli emasligini tushunish mumkin.

Frans Kafkaning shunday hikoyalaridan biri **“Jazo koloniyasida”** hikoyasidir. Hikoyada mahbuslar jazo o'taydigan koloniya, yovuz va berahm ofitser, hamda uning sevimli jazo mashinasi asarning asosiy qismini tashkil etadi. Kafka koloniya ramzi ostida inson yashaydigan jamiyatni ifodalaydi. Bu yerda shunday tartiblar o'rnatilganki, ular real hayotda insonni aql doirasiga sig'maydi.

Masalan, mahbuslarni bir kishining o'zi ya'ni ofitser sud qiladi, ularning ustidan hukm chiqaradi va o'zi bu hukmni ijro etadi. Lekin eng dahshatlisi, mahbusning o'zi bu haqda hech narsa bilmaydi, huddi "Jarayon" romani qahramoni Yozef K. kabi bu jarayonlarda ishtirok etmaydi. Ofitser mahkumni o'zi ishtirok etgan holda sud qilish, uni qanday jazoga tortilayotganidan ogohlantirish ortiqcha masala deb qaraydi va o'zining sevimli jazo mashinasini tinimsiz ishlashini yashirib ham o'tirmaydi. Bu jirkanch mashina o'z o'ljasining tanasiga "Adolatli bo'l", "Boshlig'ingni hurmat qil" singari "dabdabali" shiorlarni tig' bilan o'yib yozadi.

"Jazo koloniyasida" hikoyasi yordamida yozuvchining fojeaviy olamiga, dunyo va inson uyg'unligiga, zamonaviy dunyodagi mavjud ma'naviy qadriyatlar tizimining barbod bo'lishiga nazar tashlash mumkin.

Hikoyani tahlil qilishda otlarning stilistik ahamiyati, o'rniga e'tiborni qaratish, uning mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Asardagi otlar bir necha ma'noga, talqinga ega, bu kitobxonga kashf qilish quvonchini bag'ishlaydi. U qidirib, izlab topish muhitiga tushib qoladi. "Maqsad bor, biroq yo'l yo'q, biz yo'l deganimiz – kechiktirishdan boshqa narsa emas." Ushbu aforizmda yozuvchining ekzistensial qarashlari o'z ifodasini topadi. **Ekzistensializm** (lot. mavjud bo'lmoq) modernizmning yo'nalishlaridan bo'lib, urushdan oldin shakllandi va Ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlandi. Ekzistensializm shu nomli falsafiy nazariya bilan bog'liq bo'lib, uning asosi isbotsiz ham qabul qilinaveradigan dastlabki qoidaga bog'liq. Bu ta'limot tarafdorlari odamlarning dunyoda mavjud bo'lishining fojeaviyligini tasvirlaganlar. Umumiy tartibsizlik, kaos, muammolar va tasodiflar girdobiga tushib qolish, mavjud bo'lishning absurdligini xis qilishga halaqit beradi. Hamma narsa taqdirga, qismatga bog'liq, va bu ayniqsa "chegaraviy vaziyatlarda", ya'ni kishi hayot va o'lim o'rtasida qolgan fojeaviy paytlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Chidab bo'lmas darajadagi azob-uqubatlarga duchor qiladi, oxir-oqibat odam mavjud bo'lmoqning asosiy mazmuni – o'limdir, u shafqatsiz va ma'nisiz dunyoning bir qismi, u barcha uchun begona, yolg'iz va tushunarsizdir, degan fikrga keladi.

Kafka tirishqoqlik bilan o'qib-o'rgangan Kerkegorning ta'kidlashicha, inson voqelikni anglay olishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas, chunki uning imkoniyatlari g'oyat cheklangan, uning donoligi Xudoga murojaat qilish, o'zining cheklanganligi va o'zining hech narsaga qodir emasligini anglashdangina iborat. Insonning hayoti – bu “o'lim uchun yashash”.

Biroq ekzistensializm nazariyasi faqatgina bunga asoslanmagan. Ekzistensializm tarafdorlarining asosiy fikrlarini XX asrning buyuk fransuz faylasufi va adibi Sartr quyidagicha bayon qiladi: “Ekzistensializm – bu gumanizmdir”. Yolg'iz odam o'ziga o'xshagan yolg'iz odamlar bilan birga yashaydi. Ya'ni hayot bu - teng huquqli shaxslarning birgalikda yashashi, Xudoning oldida hamma teng, hamma mahkum etilgan, shu sababli har bir odamning burchi o'ziga o'xshashlarga yordam berishda. Odamlar mavjudligining mohiyati – insonparvarlikda, deb ta'kidlaydilar ushbu ta'limot tarafdorlari.

Bu falsafiy nazariya insonga hamdard bo'lish, unga shafqatsiz va murakkab dunyoda o'z yo'lini topishga, haqiqatni anglashga yordam berish, zulmga, zo'ravonlikka, totalitar fikrlashga qarshi turish ruhi bilan yo'g'rilgan.

“Jazo koloniyasida” hikoyasida hokimiyat muammosi ko'tarib chiqilgan. Ta'kidlash joizki, hokimiyat muammosi yozuvchini birinchi navbatda falsafiy, umuminsoniy ma'noda qiziqtirgan, uning asarlarida hokimiyat har doim qiyofasiz, biroq har joyda hoziru nozir, o'tib bo'lmas, mag'lub bo'lmas qilib tasvirlangan. Bu tizim hokimiyatidir. Ko'plab tanqidchilar, Kafka qaysidir ma'noda fashizm, bolshevizmning paydo bo'lishini bashorat qilgan, to'g'rirog'i oldindan ko'ra bilgan(“Jarayon”, “Qasr” romanlari, “Jazo koloniyasida” hikoyasi), deb ta'kidlaydilar. Hokimiyat har doim mantiqsiz bo'lgan, chunki u hokimiyat va o'zining xatti-harakatlarini tushuntirmaydi. Kafkaning fikricha, hokimiyat har doim yovuzlik va absurdning timsoli bo'lgan.

H.Hesse “Jazo koloniyasida”ni muallifning shoh asari deb hisoblagan, “bundan tashqari u nemis tili saltanatining aql bovar qilmaydigan darajadagi mohir ustasiga aylanganini” ta'kidlagan.

Kafkaning ijodiy metodi – magik realizm bo‘lib, uning asosiy xususiyati fantastika va reallikning qorishmasidir. Haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan hodisalar kundalik vaziyatlarda sodir bo‘ladi. Yozuvchida fantastikaning bostirib kirishi, an‘analarga zid ravishda yorqin, kuchli taassurot qoldirmaydi, oddiy holat sifatida beriladi. O‘ziga xos badiiy voqelikni - fantastikani barpo qilish, real hayotdagi xodisalarning yashirin ma‘nosini anglash usullaridan biridir.

“Jazo koloniyasida” hikoyasi Kafka ijodining B.Brext ta‘kidlagan o‘ziga xos qirralari bo‘lgan asar.

Tropiklarda joylashgan jazo koloniyasida, olim-sayyohga vafot etgan komendant ixtiro qilgan, hukm ijro qilinadigan apparatni namoyish qilishadi. Sudya va jallod vazifasini bajaruvchi ofitser: “aybdorlik har doim shubhasizdir”, - degan qoidaga amal qiladi. Hukmni e‘lon qilishdan esa foyda yo‘q, chunki aybdor uni o‘z tanasida, qiynoq mashinasining sixmolasi qaysi diniy amrni buzganligi haqida yozganida xis qiladi va ayni shu daqiqada uning fikri tiniqlashib, sixmola tig‘lari teshib o‘tadi. Olim uchun sud tuzilmasidagi nohaqliklar va g‘ayriinsoniylik, shafqatsizliklarning hech qanday ahamiyati yo‘q. Koloniyada sobiq komendantning usullarini bu sud tartibining “umri tugashiga yaqin qolganini” tushungan ofitserdan tashqari hech kim ochiqdan-ochiq qo‘llab-quvvatlamaydi. SHu sababdan u tez orada gumburlab ag‘anab tushgan mashinaga chiqadi va halok bo‘ladi. Adolat qobig‘iga o‘ralib olingan zulmning fosh qilinishi, uning qulashiga bo‘lgan ishonch diqqatga sazovor. Biroq tasvirlangan voqealar aniq ijtimoiy mohiyatga ega emas, shu sababli unda ro‘yoda yuz bergan dahshatli tush alomatlarini ko‘rish mumkin.

“Jazo koloniyasida” hikoyasida voqealarning aniq joyi va vaqti berilmagan. O‘quvchi diqqatini voqealarning aniq sanasi, koloniyaning geografik joylashishi ko‘rsatilmaslgi o‘ziga jalb qiladi, uni o‘ylashgi majbur qiladi: Kafka koloniyaning joylashgan erini qay tarzda tasvirlagan? Nima uchun muallif koloniya makonining cheklanganligini ta‘kidlaydi? Yana qaysi asarlarda voqealarning asosiy joyi “orol” bilan chegaralangan?(D.Defoning “Robinzon Kruzo”, G.Goldingning “Pashshalar hukmdori”, M.Saltikov-SHedrinning “Qanday qilish bir mujik ikki generalni

boqdi”, B.Lavrenevning “Qirq birinchi”, E Zamyatinning “Biz” asarlari). Muallifga voqealar joyini hayotdan uzib olish nima uchun kerak? Nima maqsadda sayyoh obrazi kiritilgan?

Makonning cheklanganligi yozuvchiga qahramonlar ustida “tajriba” o‘tkazishga yordam beradi. Orol yoki (hikoyada) barcha tomondan yalang‘och qiyaliklar bilan o‘ralgan “vodiy”, o‘ziga xos bo‘lib, hech qanday aralashuvsiz “kimyoviy reaksiyalar” sodir bo‘ladi, va biz, kitobxonlar ham bu tajriba jarayonini yaqindan kuzatamiz. Ikkinchidan, koloniya, zo‘ravonlik, insonga bosim o‘tkazish mavzusining paydo bo‘lishi, o‘quvchini o‘zini hayotdan, tashqi ta’sirdan o‘rab olgan, yorug‘likdan qo‘rquvchi totalitarizm mohiyatini anglashga olib keladi. Totalitarizm yopiq tizim bo‘lib, u o‘z chegarasi yonida “temir parda” tutib oladi, qiyoslashdan qo‘rqadi, chunki qiyoslash, uning mohiyatini yorqinroq ochib beradi.

Sayyoh koloniya va dunyo o‘rtasidagi yagona bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Uning bo‘layotgan voqealarga munosabati katta qiziqish uyg‘otadi.

SHunday qilib, hikoyaning asosiy g‘oyasi topildi: bu zo‘ravonlikka, inson shaxsini yo‘q qilishga, qalb deformatsiyasiga, insonni inson tomonidan qul qilishga qarshi norozilik.

Koloniyaning ramzi sifatida jismoniy jazolash, azoblash apparatini tanlanishi bejiz emas. Kafka har qanday jazolash apparatining ishlash formulasini beradi: oldin u “qo‘l bilan”, keyin “mutlaqo mustaqil” harakatga keltiriladi va oxir-oqibat “so‘nggi tishli g‘ildiraklari” uzilib tushgach, mashina vayron bo‘ladi. Aynan mana shunda har qanday bostirish apparatining dahshatli mohiyati yotadi. “Yopiq jamiyat”ning ma’naviy kodeksi, qonunlari mahkumlarda “aybdorlik hissini” tarbiyalaydi, “aybdorlik har doim shubhasizdir”, - deb ta’kidlaydi ofitser.

Tabiiyki, adliya tizimi har doim hokimiyat tepasida turganlarning manfaatlarini himoya qiladi. O‘quvchi jazo koloniyasi, adliya va sud ijrosi qonunlari haqida o‘zi xulosa chiqaradi. Endilikda sudda ishni ko‘rib chiqish nazarda tutilmaganiga, birining aybi boshqasining gapiga qarab aniqlanishiga, hukm qilinganlar qatl qilinishlarini bilmasligiga, ularning himoyachilari yo‘qligiga, hukm chiqarilganini bilmasligiga ajablanilmaydi. Nima keragi bor?

Hukm qilinganlar buni keyinroq, “o‘z gavgdalarida” his qiladilar, ular “hukmni o‘z jarohatlarida tahlil qiladilar”.

Dahshatlisi shundaki, apparat har doim qonga bulangan, biroq aynan mana shu narsa uning vayron bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ofitser: “haddan tashqari bulg‘ash – bu kamchilik” deb zorlanadi.

Ulug‘ iste’dod sohibi bo‘lgan Kafka “gitlercha jannatni” ham, Stalin qatag‘onlarini ham oldindan ko‘ra bilgan. U “soldat ham”, “sudya ham”, konstruktor ham, kimyogar ham, chizmachil ham o‘zi bo‘lgan yakka hokimlarning (“koloniya komendanti”) butun dahshatini anglab yetdi. Hikoyaning muallifi “koloniyaning tizimi bir butun, bo‘linmas” ekanini, mavjud tuzumni o‘zgartirish benihoya mushkul ekanini va buning uchun uzoq yillar kerak bo‘lishini juda yaxshi bilgan. SHu bilan birga Kafka har qanday totalitar tuzum barbod bo‘lishini ham ko‘ra bilgan, chunki uning o‘zida o‘z-o‘zini yo‘q qilish mexanizmi yotadi.

Biroq... Kafkaning qahramoni ortidan qaytaramiz: yangi avlodlar “uzoq yillar mobaynida eski tartiblarni o‘zgartira olmaydilar”. Buning sababi nimada, eski tartibning bunchalik darajada uzoq umr ko‘rishiga nima va kim yordam beradi, degan savolga javob topishga harakat qilamiz.

Avvalo u insonlar ongini, fikrlarini nazorat qiladi, fikr yuritish erkinligiga dahl qiladi. Uning buyuk yovuzligi ham, buyuk kuchi ham shunda. Nima sababdan totalitar sho‘rolar tuzumi 70 yildan ko‘proq yashadi? Nima uchun Germaniyadagi fashistlar boshqaruvi bunchalik kuchli edi? Chunki ular hamfikrlilikka erishgan edilar. Bunday jamiyatlarda barcha qurbon: boshliqlar ham, ularning qo‘l ostidagilar ham, jallodlar ham, hukm qilinganlar ham. “Jazo koloniyasida” hikoyasi mana shu muammolarni ko‘tarib chiqadi, shular haqida bayon qiladi.

Etiborimizni ofitser obraziga qaratamiz. U kim? Uning qadriyatlar tizimi qanday? Albatta, ofitser zulm apparatining, azoblash mashinasining kichkina bir murvati, xolos. Uning komendantning ixtirosiga bo‘lgan ko‘ngilni yumshatadigan darajadagi munosabati hayratga soladi. U apparatga mehr ko‘zi bilan, hayratlanib qaraydi, mexanizmga xizmat ko‘rsatish ishlarini tirishqoqlik bilan bajaradi, u “bir butun, bo‘linmas tizim”ning sodiq muxlisi va ixlosmandi. Ofitser zolim va

maxbuslarga rahm shafqat qilmaydi. U jazolanayotganning azoblanishlari haqida ruhlanib, quvonch bilan soʻzlaydi, qatlni “sud” deb ataydi. U hech qachon komendant joriy qilgan qonun-qoidalarni muhokama qilmagan, qoralamagan. Uning shaxsan komendantga va sobiq tuzumga boʻlgan sodiqligi chegara bilmaydi.

Biroq, nima sababdan biz oʻzi mehr bilan atrofida girdi kapalak boʻlgan “mahluq” qoʻlida ixtiyoriy oʻlimni qabul qilgan odamga bunchalik achinamiz? Nima sababdan jallod(koloniyaning qadriyatlar tizimida - sudya) qurbonga aylandi? Nima uchun sayyoh qatlni ixtiyoriy qabul qilgan ofitserning qaroridan hayratlanadi? U ofitserga quyidagilarni aytishni burchli deb hisoblaydi: “Sizning sofdil komil ishonchingiz meni toʻlqinlantirib yubordi”. Sayyoh qotillik qurolini silab-siypayotgan bu vahshiy maxluq qiyofasida, oʻz burchini sidqidildan bajarayotgan rostgoʻy va jasur odamni koʻradi.

Hech kim qalblarni vayron qiluvchi totalitar mashinaning bosimidan qutulib qololmaydi, buni quyidagi tenglik orqali ifodalash mumkin:

$$\text{OFITSER} = \text{SUDYA} = \text{JALLOD} = \text{QURBON}$$

Bizning jazoga hukm qilinganga unga xavf-xatar solib turgan paytgacha rahmimiz keladi, biroq u ofitserni oʻlimini intizorlik bilan kutayotganda, unga yordam berishdan bosh tortganida, yuzida “sassiz kulgu” paydo boʻlganida undan nafratlanamiz. Endi jazoga hukm qilingan apparatning yomon ishlarida uning sherigiga aylanadi.

$$\text{HUKM QILINGAN} = \text{JALLOD}$$

Totalitar tuzumda hamma mahkum, odamlar orasida qarindoshlik tuygʻulari paydo boʻladi, chunki ularning barchasini bitta taqdir birlashtiradi. Askar ham va jazoga hukm qilingan ham birday och(biz buni askar mahkum bilan tovoqning yuqini yalaganda guvohi boʻlamiz), birday huquqsiz, ezilgan. Mahkum

qilinganning qatl qilinishi to'xtatilganda, askar va o'zi oldin qo'riqlagan bilan bekorga do'stlashmaydi. Ular hazillashib o'ynaydilar, baxslashadilar.

Bir tomondan totalitarizm dunyosi mantiqqa ega bo'lsa, ikkinchi tomondan u absurd narsa. Oruelning "1984" romanida bu Katta akaning shiorlarida aniq-ravshan shakllantirilgan: "Urush bu – tinchlikdir", "Ozodlik – bu qullikdir", "Kuch – bilimsizlikda". Tabiiyki, odamlarni azoblash muhabbat vazirligining tasarrufida bo'ladi. Haqiqat vazirligida esa reallik yo'q qilinadi va soxtalashtiriladi. Mana shu absurd mantiqi bo'ladi.

Totalitar rejimlarning bo'lishiga dunyoning munosabati qanday? Ular qanday qilib bir-birlari bilan chiqishadilar. Bizga buni tushunishga sayyoh yordam beradi. Uning bo'layotgan voqealarga baho berishinig o'zgarib borishini kuzatish juda qiziq. Kafkaning benazir qobiliyati mana shunda namoyon bo'ladi. Dunyo xuddi mana shu tarzda yosh SHo'rolar Respublikasining paydo bo'lishini, fashizmning oyoqqa turib, hokimiyatni ko'lga olib kuchga to'lishini kuzatib borgan edi. Dunyo bu rejimlar o'zi uchun qanchalik xavf tug'ilayotganini sezmay qolgandi. "Sayyoh: boshqalarning ishiga qat'iy ravishda aralashish har doim tavakkalchilik bo'ladi", - deb o'yladi.

"Jazo koloniyasida" - go'yo oddiy, kundalik hayot haqidagi... jazolash mashinasi, g'ayrioddiy tartibli, g'alati jazo koloniyasi haqidagi asar. Aytish joizki, bu "g'ayrioddiylik" asar o'qib bo'lingandan keyin paydo bo'ladi; o'qish paytida esa tasvirlangan voqealardan "yurak yengilgina" orqaga tortib ketadi. Azoblayotgan jazo mashinasi hukm qilinganning tanasiga, u buzgan qoidani o'n ikki soat davomida o'yib yozadi va bu vaqt mobaynida u tirik bo'ladi, hamda gunohini tanasi orqali his qiladi, oltinchi soatda, o'limi oldidan azoblanayotganning fikri tiniqlashadi. Keyin sixmolaning o'tkir tishlari uni teshib o'tadi va maxsus o'raga uloqtirib tashlaydi. Jallod bu dahshatli apparatni ixtiro qilgan eski komendantni chuqur hurmat qilib, unga sajda qiladi. Bu Kafkaning "odam-hokimiyat" mavzusidagi asari bo'lib, bunda komendant – hokimiyat timsoli.³²

³² Internet ma'lumoti.

Keksa komendant hayotlik paytida juda ko‘p odamlar qatlni tomosha qilishga kelardilar, shu sababdan hatto “bolalar birinchi” (ya’ni bolalar birinchi bo‘lib, navbatsiz tomoshaga kiritilardi) degan qoidani kiritishga to‘g‘ri kelgan. Biroq u o‘ldi va yangi komendant o‘zi bilan yangi qoidalarni olib keldi. SHunda odamlar, shu zahotiyoq uning yangi g‘oyalarini qabul qildilar... Ammo odamlar har ikki holatda ham o‘sha-o‘shalar edi-ku. Nima uchun shunday? Odamlarda bunday qabih, razil xushomadgo‘ylik, hamma narsada xo‘jayinga o‘xshash istagi qayerdan paydo bo‘lgan?

Ehtimol jallod – asarda o‘zini odamga o‘xshab tutadigan yagona qahramondir. Ha, u shafqatsiz, biroq u o‘z g‘oyasi, o‘z haqiqati uchun oxirigacha boradi, yangilikka tilyog‘lamachilik, laganbardorlik qilmaydi. Oxir-oqibat qurbonlarni nima qilgan bo‘lsa, o‘zini ham shu kuyga soladi: sixmolaning o‘tkir tig‘lari ostiga yotadi. Va qulayotgan mashina, uni tilka-pora qilib yuboradi. U buni o‘zgara olmagan uchun qiladi, chunki u uchun o‘zgarish – xoinlik qilishdir. Bu qari komendantga sodiqlik emas, bu o‘ziga, o‘z qadr-qimmatiga sodiqlik.

Hikoya yengil o‘qiladi. G‘alati tafsilotlar, g‘alati buyumlar (oshxonadagi stol ostidagi qabr toshiga o‘xshash) hikoyani so‘z bilan ifodalab bo‘lmas darajada jozibali qiladi. U xotirada muhrlanib qoladi.

Daxshat nihoyasiga etdi. Eski komendantning zamoni o‘tgani uzil-kesil ma’lum bo‘ldi, uning nizomlari u kashf qilgan apparat va sodiq izdoshining o‘limi bilan bilan birga quladi. SHunga qaramasdan o‘quvchi, go‘yo uni oldinda yana qandaydir dahshatli narsalar kutayotgandek, hech qanday yengillikni xis qilmaydi.

Hikoyadagi ayanchli holatlarni o‘qigan o‘quvchi Kafkaning bu hikoya mohiyati asosida inson - jamiyatning iskanjasida xuddi shu koloniyadagi mahbus singari ojiz, nochor, huquqsiz va erki toptalgan holatda bo‘lishini aks ettirganini anglab olishi mumkin.

Shu kabi g‘oyalarni ilgari surgan hikoyalari bilan o‘zbek adabiyoti nasriga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan adiblarimizdan biri Nazar Eshonquldir. Uning

hikoyalarida inson ruhiyati va tafakkuri bilan bog'liq masalalar, ayniqsa ma'naviy – axloqiy masalar yirik planlarda aks ettirilgan.

“**Muolaja**” hikoyasida ham inson ruhiyati va uning erkinligi masalalari asosiy o'ringa ko'tarilgan. Hikoyaning markazida o'zini yangilik tarafdori va bu yangiliklar inson uchunligini isbotlashga harakat qilayotgan, inson jamiyat qonunlariga va tartiblariga amal qilgan holda yashashi kerak, bu yo'lda uning ustidan har qanday tajribani sinab ko'rishga tayyor berahm jinnixona professori va uning jirkanch tajribalarini amalda qo'llayotgan shogirdlari va hamshiralari, hamda eng asosiysi amalda qo'llanilayotgan xivchin tajribasi turadi. Ularning o'ljalari esa aql – hushini yo'qotgan, telbanamo insonlar yani ruhiy kasallardir.

Hikoyani o'qigan o'quvchi insonlarni davolashda va jamiyatga qo'shishda yovuzona “xivchin” tajribasini qo'llayotgan professor, kasallarni har kuni xivchin bilan kaltaklab, ularning dod – faryodlaridan maroq bilan bahra olayotgan hamshiralardan jirkanadi, nafratlanadi. O'z- o'zidan savol tug'iladi: “Kim bo'lganda ham ular inson-ku? Shu zaminning inson zotiga mansub bo'lgan mavjudoti.” Ammo bu qilinayotgan ishlar, amalda bajarilayotgan vazifalar insoniylikka xos emas.

Hozirgi yozuvchilar uchun asosiy narsa bu – o'z qahramoni uchun inson nafaqat shunchaki yashay oladigan, balki hozirgi kunni anglash va o'tmishni eslashi uchun zamonni topa olishdan iborat. Bu uning istiqbolining sharti hisoblanadi. Nazar Eshonqulning “Muolaja” hikoyasi huddi shunday – odamlarni ularning xotirasi va fikrlash imkoniyatini mahv etish orqali ayni kelajakdan mahrum etishlari to'g'risida.³³

Shu o'rinda “Jazo koloniyasida” va “Muolaja” hikoyalarining o'xshashligi va bir-biriga yaqinligi odamning diqqatini tortadi. Quyida har ikki hikoyaning o'zaro o'xshash va farqli tomonlari borasida to'xtalib o'tamiz:

- 1) har ikki asar hikoya janrida yozilgan;

³³ Yo'lchiyev Q. Hozirgi adabiy jarayon(Ma'ruzalar matni). – Farg'ona,2009.

- 2) yo'nalishi – modernizm;
- 3) psixologik xarakterga ega;
- 4) voqealar tasvirlangan joy – yer;
- 5) voqealar yuz bergan vaqt – XX asr;
- 6) o'quvchi auditoriyasi – faqat yoshi kattalar uchun;
- 7) hikoyalar na aniq boshlanishga va na aniq yakunga ega;
- 8) har ikkisi ham tanishtiruv bilan boshlanadi:
“Jazo koloniyasida”:
“ – Bu antiqa apparat, - dedi ofitser sayyoh-olimga va apparat o'ziga yaxshi tanish bo'lsa ham, uni suq bulan ko'zdan kechirdi.”³⁴
“Muolaja”da:
“ – Qarshingizda uchta kasal turibdi, - dedi professor, - yaxshilab ramz salsalaringiz, bu uch odamda o'xshash jihatlarni ko'rasizlar,...”³⁵
- 9) har ikki hikoyaning asosiy g'oyasi insoning jamiyatdagi o'rni va uni tahqirlayotgan kimsalar bo'lib, bu “Jazo koloniyasida” – ofitser, “Muolaja”da – professor orqali namoyon bo'ladi. Lekin farqli jihati, ofitser mahkumlarni azoblab, bundan zavqlanib, ularni jamiyatdan, hayotdan uzayotgan bo'lsa: “...Olti soatdan keyin “mola” tishlari jinoyatchi tanasini butunlay teshadi va uni handaqqo – qonli paxta va suv ichiga itqitadi.”, professor kasallarni kaltaklab

³⁴ Frans Kafka. Jazo koloniyasida // Yoshlik, 1989, №2. – B. 56.

³⁵Eshonqul N. Muolaja // Yalpiz hidi. T.: Sharq, 2008. – B. 347.

davolash orqali mute insonlarni jamiyatga qo'shadi: "... ko'rib turganlaringizdek, juda seriltifot, har bir harakatingizga qulluq bilan javob beradi..."

- 10) "Jazo koloniyasida" hikoyasida ofitser koloniya va jazo mashinasi haqida u yerga borgan sayyoh – olimga gapirib, amalda ko'rsatib bersa, "Muolaja"da professor jurnalistlarga o'z kasalxonasi va u yerdagi kasallar, tajribalar haqida bayonot beradi;
- 11) har ikki hikoyada yovuz insonlarning jirkanch ishlarini amalga oshirayotgan maxsus qurollar mavjud bo'lib, biri inson badaniga tig' bilan o'yib yozadigan jazo mashinasi bo'lsa, biri inson tanasini tilib, qontalash qilib yuboradigan xivchindir. Ular qanday maqsadda qo'llanishidan qat'iy nazar ikkisi ham insonga ham jismonan, ham ruhan azob beradi;
- 12) eng ayanchlisi har ikki hikoyada ham inson o'zi azob berayotgan insonlarning qiynalib, faryod chekishidan zavq oladi. Masalan, birinchi hikoyada ofitser mahkumning jazo mashinasida qanday qiynalayotganini tomosha qilib zavqlansa, ikkinchi hikoyada professor va hamshira kasalning faryodi va ingrashlaridan bahra oladi. Kuniga kerak bo'lsa sutkalab bu ishni amalga oshirayotgan hamshira busiz bir kunini ham tasavvur qila olmaydigan darajaga yetib qolgan;
- 13) hikoyalarning o'ziga xos tomonlari yana shundan iboratki, asarlarda bo'layotgan voqealarni chetdan o'qiyotgan odam dahshatga tushib, nafrat bilan qabul qilsa, asar qahramonlari bunga oddiy bir holatday qaraydi. Ya'ni, "Jazo koloniyasida" bu bo'layotgan voqealar asar qahramonlari, ofitser, yordamchi

soldatlar uchun doimiy holat, hayot qonuni. Uning taqdirida shu qismat borakan, demak shunday bo'lishi kerak. "Muolaja"da ham huddi shunday jarayon inson ruhiy xastami, demak "xivchin"lanishi kerak, "davolanish" uchun albatta! Bu "muolaja" qonuni;

- 14) odatdagi asarlarda qahramonlar go'zallikdan, biror buyumning tashqi ko'rinishidan, yoki oddiy bir gulning shabadada mayin tebranishidan estetik zavq olsa, bu hikoyalarning bosh qahramonlari ofitser va professor o'lim bilan olishayotgan jinoyatchining yoki kaltakdan azoblanayotgan ruhiy kasalning tana harakatlaridan nafosat qidiradi. Masalan, "Jazo koloniyasida": "...uzilgan tasma o'rnida men darhol zanjirdan foydalanishim mumkin. To'g'ri, bu holda o'ng qo'lning tebranishi o'z nafosatini yo'qotadi" yoki "...Jinoyatchining azobdan qiyshaygan chehrasida ajib bir ravshanlikni ko'rardik biz, bu – nihoyat erishilgan va ayni paytda yana yo'qolib borayotgan adolat nuri edi, unga cho'milardik!..."

"Muolaja"da: "...xivchin kasalning badaniga tusharkan, xivchinchining yuzida qandaydir intizorlik, besabrlik balqir, kasal ingrab yuborgach bu ifoda uning butun yuziga tarqab, o'rnini bu ingroqdan uyg'ongan mamnunlik egallardi... U iloji boricha mana shu lahzani kamaytirishga va ingroqni eshitib tezroq rohatlanishga tirishib, xivchinni unchalik yuqori ham ko'tarmay tushurardi";

- 15) "Jazo koloniyasida" hikoyasida yana shunday o'rinlar borki, asarni o'qigach beixtiyor adibning yashagan zamoni ko'z oldingizda gavdalanadi. Adib hikoyada berilgan "jazo mashinasi" ni o'zi yashayotgan imperiya (Avstriya-Vengriya) "davlat mashinasi" ga qiyoslaganday tuyuladi. Chunki, "jazo mashinasi" jinoyatchilarni 12 soat ichida o'lim jarayonigacha qiynasa, "davlat mashinasi",

ya'ni o'sha davrdagi siyosat insonlarni bir maromda tazyiq ostida ushlab turadi. Bu undanda og'ir jarayon. Adib o'z davrini, insonlarni o'zgarayotganini, yangi davr boshlanishini hikoyada eski komendantning o'limi va yangi komendantning kelishi, hamda yangi o'zgarishlarni amalga oshirishi orqali bayon etadi. Ammo, yangi davr boshlansada, eskilik tarafdorlarining ham borligini u qahvaxonadagi stol ostiga ko'milgan eski komendantning qabri va unga tosh qo'yib, unga yozilgan bitik orqali uning qaytib kelishiga ishonch bildirgan muxlislari tomonidan ko'rsatib o'tadi.

“Muolaja” hikoyasida: voqealar qaysi davrda bo'lgani berilmagan, faqat asar so'ngida jurnalistlarning to'xtab qolgan soatga qarashlaridan, ehtimol asar faqat yozuvchining to'qimasi asosida yozilgan bo'lishi mumkin. Ammo mana shu g'ayrioddiy to'qima orqali hozirgi kunda insonlar orasida o'zaro mehr-oqibat qolmaganligi, insonni tahqirlash odatiy holga aylanganligi ochib berilgan;

- 16) yuqorida (“Jazo koloniyasida”) jinoyatchining ishtirokisiz sud qilinishi va jazo tayinlanishi haqida biroz to'xtalib o'tgan edik. Shu o'rinda Kafkaning “Jarayon” romani ham ko'z oldimizda gavdalanadi. Roman qahramoni Yozef K. hech qanday jinoyat qilmagan bo'lsa ham sud ishlarida biron bir tushintirishlarsiz ishtirok etadi va uni ogohlantirilmagan holda jazo tayinlanib, u qatl etiladi. Shu jihatdan olib qaraganda asarlarida sud jarayonlarini ko'proq, o'zgacha bir tempda ochib berish, sudning turli shakllariga to'xtalib o'tish va ularni ochiq aks ettirish ham Kafkaga xos jihatdir. Ya'ni uning asarlarida inson insonni sud qiladi, inson o'zini ham sud qiladi. Hamma bilgan jinoyatlari uchun oddatdagiday mahkamada sud qilinsa, o'zi bilgan gunohlari uchun xayollarida, tushlarida o'zini-o'zi sud qiladi. Fikrimcha, Kafka

romanlarida sud ishlarining ko'proq aks ettirilishi, muallifning aynan shu jarayonlarda ishtirok etganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki u bir necha yillar advokatlik bilan shug'ullangan. Bundan tashqari XX asr g'arb adabiyotida "sud jarayoni" mavzusi keng yoritilgan.

"Muolaja" hikoyasi va N.Eshonqulning ayrim hikoyalarida ham huddi shunga o'xshash holatlar uchraydi. Bizga ma'lumki yozuvchi jurnalistika sohasining mutaxassisi. Shu sababli bo'lsa kerak ko'plab hikoyalarida, shuningdek "Muolaja" hikoyasida ham voqealarni bayon qiluvchi shaxs jurnalist obrazi ostida beriladi. Shu qatorda jurnalistlarning o'ta darajada qiziquvchanligini, hamma yerda shay bo'lishlarini ko'rsatib o'tadi.

- 17) asarlarning asosiy farqli tomoni ularning yakunida ko'rinadi. "Jazo koloniyasida" so'ngida ofitser o'zining sevimli mashinasi qurboniga aylanadi va shu bilan uning bu tajribasi yakunlanadi. Chunki uning o'ziga qo'shilib mashinasi ham parchalanib ketadi. "Muolaja" so'ngida esa professorning tajribalari tobora yuksalib borayotganini ko'rish mumkin. Hatto u kelajakda kasalxonasini yanada kengaytirib, kasallarni turiga qarab har xil binolarga joylashtirishni va rejalashtirib qo'ygan "zamonaviy" tajribalarini amalda qo'llashni va dunyo hamjamiyatiga taqdim qilishini aytadi.

Yuqorida biz Frans Kafka va Nazar Eshonqulning hikoyalarini qiyoslab o'rganishga harakat qildik. Buni qarangki ularning nafaqat hikoyalarini, balki romanlarini ham o'zaro qiyoslab o'rganish mumkin ekan. Aynan "Jarayon" romaniga o'xshash strukturada yozilgan Nazar Eshonqulning "Go'ro'g'li" romani ham bor. Bu haqda ustozimiz Yo'ldosh Solijonovning "Kitob dunyosi" gazetasida nashr etilgan "Roman. Tanqid, kitobxon" maqolasi orqali ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Har ikki roman qahramoni biri aybsizligini isbotlash uchun, biri

tirikligini isbotlash uchun tinimsiz mahkamaga qatnaydilar. Ammo har ikkisi ham hech qanday natijaga erishmaydi.

Nazar Eshonqulning “Go’ro’g’li” romani tom ma’noda absurd g’oyasiga – yashashda ma’ni yo’q degan fikr asosiga qurilgan. Xuddi yumaloq toshni tepalikka olib chiqib, o’zining haqligini isbotlashga urinayotgan Sizif singari asar qahramoni – N. ham mahkamalarga tinimsiz qatnab tirikligini isbotlamoqchi bo’ladi. Biroq u mansub bo’lgan jamiyat odamning borligini tan olgisi kelmaydi. Asarni o’qirkanmiz, ko’z oldimizga beixtiyor F. Kafkaning “Jarayon” romani keladi. Qahramonlar ismining bosh harf bilan belgilanishidan tortib, ularning yoshigacha, o’z gunohsizligini isbotlash uchun yugurib-yelishlarigacha, ammo haq ekanligini amalda isbotlay olmay, ruhan azoblanib, olib ketishlarigacha bir-biriga o’xshaydi. Xullas, ikkala romanni yonma-yon qo’yib o’qisangiz, bir xil taqdirga ega bo’lgan egizaklarga duch kelgandek bo’lasiz.³⁶

Agar qiyosiy adbiyotshunoslik asarlarni o’rganishda ularning nozik qirralarini ochib berishga xizmat qilsa, bu uning eng katta yutug’idir. Chunki, biron asar boshqa bir asarga solishtirilgandagina uning ko’lamdorligini, mavzuiy-mazmuniy boyligini, yozuvchi mahoratini aniqlash mumkin bo’ladi.

³⁶ Solijonov Y. Roman, tanqid, kitobxon // Kitob dunyosi, 2013, №8.

V. XULOSA.

Modernizm falsafiy estetik hodisa bo'lib, u XX asr adabiyoti va san'atida chuqur iz qoldirdi. U syujeti va kompozitsion qurilishidagi o'ziga xos xususiyatlari bilangina emas, balki nutqiy ko'rinishlari jihatidan ham rang-barang va o'ziga xosdir. Bu yo'nalish vakillari dunyoga o'zgacha nigoh bilan qarashlari, reallikni inkor etishlari va ko'proq inson hayotining qora kunlarini, tushkunlikni tasvirlashlari bilan boshqa yo'nalishlardan ajralib turadi.

Modernizmning klassik vakillaridan biri bo'lgan Frans Kafka asarlarida ham bu holatlar yuqori planlarda aks ettirilgan. Uning asarlari o'z o'rnida bir-birini takrorlamasligi bilan odamni taajjubga solsa, yana bir o'rinda ularning o'zaro uzviy bog'liqligi bilan insonni lol qoldiradi. Uning asarlari o'ziga xos qiyin va qiziqarli.

Kafka bizga adabiy tanqidiy bahslar uchungina qiziqarli emas. Biz unga, eng avvalo, pul va buyumlar hukmronlik qiladigan, hamma narsa mansablar, vijdonlar, hatto jonlar savdo-sotig'i bilan o'lchanadigan jamiyatda "kichkina odam" ning fojeasini dard bilan ko'rsatib bergan ijodkor sifatida qaraymiz. Bu jamiyat insonning barcha tabiiy aloqalarini, uning qarindoshlari bilan, tabiat bilan, oilasi bilan, birga mehnat qiladigan odamlari bilan aloqalarini uzadi, uni yolg'izlikka mahkum etadi.

"Jazo koloniyasida" asarida ham Kafka o'z qahramonining ma'naviy tanazzulini ko'rsatish uchun adabiyotda sinalgan bo'rttirish, vaziyatni xayolot chegarasigacha keskinlashtirish usulini qo'llaydi. Bu ham Kafkaga xos holat.

Bu usuldan o'z hikoyalarida tez-tez foydalanadigan, asarlarini asosan xayollarining eng keskin nuqtalarida paydo bo'ladigan g'oyalar asosida yozadigan adibimiz Nazar Eshonqulning ayrim asarlarida Kafkaga xos jihatlar ko'plab uchrab turadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ularning asarlari qandaydir bir-biriga yaqin. Ammo adiblar turli xil davrlarda, asrlarda yashashgan.

Ishning asosiy maqsadi "Jazo koloniyasida" va "Muolaja" hikoyalarining qiyosiy tahlili edi. Qiyoslash natijasida har ikki asarni hikoya janrida, modernizm

yo'nalishida yozilganligini ko'rish mumkin. Voqealarning bayoniga ko'ra hikoyalar falsafiy ruhga qorilgan, psixologik xarakterga ega. Shuning uchun ularni o'quvchilar auditoriyasi katta yoshdagi insonlarni tashkil etadi. Hikoyalar bayoniga ko'ra voqealar yerda bo'lgan va tahminan har ikkisida ham XX asar voqealari tasvirlangan.

O'ziga xos tomonlariga ko'ra "Jazo kaloniyasida" va "Muolaja" hikoyalari na aniq bir boshlanishga, na aniq bir yakunga ega. Bu ham asarlarning noan'anaviyligidan dalolat. Ularni qanchalik o'rganib, qiyoslanmasin yana ko'plab qirralari ochilaveradi va yana sirililigicha qolaveradi. Asarlarga qanday baho berish va tahlil qilish esa har bir o'quvchi tomonidan ularning takrorlanmas jihatlarini ochib beraveradi. Bu esa har ikki adabiyot vakilini, Frans Kafka va Nazar Eshonqul ijodini yangi pog'onaga ko'taraveradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har ikki hikoyaning asosiy tub mohiyatini insonning jamiyatda qanday o'ringa ega bo'lishi va kim bo'lishidan qat'iy nazar bu hayotda yashashi, erkinlikka, o'z fikriga ega bo'lishi kerakligi tashkil etadi.

Bu g'oyalarni ilgari surishda o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham yetarlicha asoslar va muammolar bor. Ularni o'zaro qiyoslab o'rganishda esa bularning yechimini, to'g'ri yo'lga solishni o'rganish va bilish mumkin. Bu hozirda borgan sari taraqqiy etib, rivojlanayotgan korporativistikaning asosiy yutug'idir.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent; Ma'naviyat, 2008.
2. Ashurov H. XX asr 80-90-yillar o'zbek hikoyachiligining janr xususiyatlari(Magistrlik dissertatsiyasi). – Frag'ona, 2006.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent; O'qituvchi, 1979.
4. Do'stmuhammad X. Nazarning umidbaxsh kemalari // Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. –Toshkent, 2004.
5. Eshonqul N. Zulmat saltanatiga sayohat // Maymun yetaklagan odam. – Toshkent, 2004.
6. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam // Yalpiz hidi. – Toshkent; Sharq, 2008.
7. Frans Kafka. Jazo koloniyasida // Yoshlik, 1989, №2.
8. Gustav Yanoux. Kafka bilan suhbatlar // Jahon adabiyoti, 2006, №4.
9. Jahon adiblari adabiyot haqida // Espen Xovardsxolm // Modernizm. – Toshkent; Ma'naviyat, 2010.
10. Karimov N. va boshqalar. Adabiyot (11-sinf darslik). – Toshkent; O'qituvchi, 2004.
11. Komilova S. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi masalasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 2009, №6.
12. Matyoqubov S. Nazar Eshonqul hikoyalarida ijodiy individuallik // O'zbek tili va adabiyoti, 2011, №5.
13. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent, 2000.
14. Qosimov A. Adabiyotda tipologik o'xshashliklar va o'zaro ta'sir. – Toshkent; Fan, 2004.
15. Qosimov A., Xo'jayev S. XX asr g'arb adabiyoti. – Toshkent; Akademnashr, 2011.
16. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent; Akademnashr, 2010.

17. Saidov A. F. Kafka asarlarida “Sud jarayoni” mavzusi // Jahon adabiyoti, 2011, №9.
18. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. – Toshkent, 2009.
19. Solijonov Y. Roman, tanqid, kitobxon // Kitob dunyosi, 2013, №8.
20. Yo'lchiyev Q. Hozirgi adabiy jarayon(Ma'ruzalar matni). – Farg'ona,2009.
21. Zunnunov A., Hotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma. – Toshkent; O'qituvchi,1978.
22. www.ziyouz.com
23. www.kh-davron.uz
24. www.kutubxona.com
25. www.turklib.uz
26. www.kafka.ru
27. www.dmurashev.livejournal.com
28. www.fege.narod.ru
29. www.proza.ru
30. www.philosophy.ru
31. www.bertranrussel.narod.ru
32. www.osvita.ua